



O‘ZBEKISTON — BAA DO‘STLIK VA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI JADAL RIVOJLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Hukumat ishlarini bo‘yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gargaviy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, mamlakat Bosh vaziri, Vitse-prezidenti va Dubay Amiri Shayx Muhammad Ol Maktum hamda Vitse-prezident Shayx Mansur Ol Nahayonning samimiy salomi va ezuq tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni, avvalo, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini ta‘minlash borasidagi ishlarni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston — BAA do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlanib, ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlik mustahkamlanayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlat xizmati mexanizmlarini takomillashtirishning 10 ta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha hamkorlikni nazarda tutuvchi qo‘shma “yo‘l xaritasi” izchil amalga oshirilmoqda. BAAning byurokratiyani qisqartirish sohasidagi ilg‘or tajribasi joriy etilmoqda. Tegishli dastur doirasida loyiha ofisi ishga tushirildi.

Hozirga qadar qamrovli bir milliondan oshgan

“Besh million sun‘iy intellekt yetak-chilari” ta‘lim dasturini amalga oshirish natijalari ham e‘tirof etildi.

Umummilliy kitobxonlik harakatini birgalikda yo‘lga qo‘yish rejalarini ko‘rib chiqildi.

Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va kamol toptirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, qo‘shma taraqqiyot forumlarini o‘tkazish hamda O‘zbekiston rivojiga xizmat qiluvchi strategik va konseptual hujjat-larni tayyorlashni ilgari surish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘ZA

MA‘RIFAT, MUTOLAA VA TERAN TAFAKKUR YURT TARAQQIYOTINING QUDRATIGA AYLANMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha umummilliy harakatga start berish marosimida ishtirok etdi.



Tafakkur — insonga tortiq etilgan eng bebaho ne‘mat! Zamonaviy gadjetlar, ayniqsa, sun‘iy intellekt uning naqadar qadri ekanini yana bir karra isbotlamoqda. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda yashab bilyapimizki, dunyoda yetakchilik qilish, erkin va farovon yashash kafolati aynan tafakkur, fikrlash tarzi bilan bog‘liq.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning ilk kunlaridayoq, hali hayotimizga sun‘iy idrok kirib kelishga ulgurmagani pallasida barchaning kitob bilan do‘st bo‘lishi zarurligi aytilgan

O‘z vaqtida ilgari surilgan tashabbus qisqa muddatda amaliy harakatga aylandi. Yurtimizda kitobxonlik borasida o‘ziga xos targ‘ibot boshlandi. Zero, kitobxonlik faqat ta‘lim masalasi emas, balki millat kelajagi, xalqimizning ma‘naviy qudrati, mamlakat raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan muhim omil ekani o‘sha paytdayoq hisobga olingan edi. Bugun mutolaa madaniyati va kitobga e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. — Kitob o‘qiydigan odam teran va sog‘lom fikrlaydi. Bunday tafakkurga ega

inson esa jamiyatni o‘zgartira oladi, — dedi Prezidentimiz.

Ulug‘ ajdodlarimiz — Imom Buxoriy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi mutafakkirlar insoniyat sivilizatsiya-siga ulkan hissa qo‘shganini qayd etdi. Ularning yuksak marralarga erishishida ilgama intilish va kitob mutolaa asosiy manba bo‘lgan. Umuman, dunyoda biror salmoqli yutuqqa erishgan inson borki, muvaffaqiyati tining ortida bilim, tafakkur, demakki, kitob turibdi.

Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA YETAKCHILARI TELEFON ORQALI MULOQOT QILDILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlar-ni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalardagi samarali aloqalar mamnuniyat bilan qayd etildi. Parlamentlararo, ishbiarmonlik va madaniy-gumanitar almashinuvlar faol rivojlanmoqda.

O‘ZA

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SUDYALAR KENGASHLARI RAHBARLARINING IV YIG‘ILISHI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Avvalambor, siz, azizlarni turkiy sivilizatsiyaning qadimiy markazlaridan biri bo‘lgan ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand shahrida chin dildan tabriklashdan baxtiyorman.

Hech shubhasiz, ushbu yig‘ilishning doimo adolat tomonlariga tayanib ish yuritgan Sohibqiron Amir Temur saltanatining poytaxtida, ul zotning 690 yillik qutlug‘

tavallud sanasi xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgan kunlarda bo‘lib o‘tayotgani anjunga alohida shukuh bag‘ishlamoqda.

Jahon hamjamiyatidagi o‘rni va nufuzi tobora ortib borayotgan Turkiy davlatlar tashkilotining bugungi kunda turkiy birlik va taraqqiyot borasida muhim rol o‘ynayotgani barchamizga yuksak g‘urur va iftixor yetkazadi.

Davomi 2-beta

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK QURBON HAYITI MUNOSABATI BILAN AHOLINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH VA MEHR-SAXOVAT TADBIRLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA

Xalqimizga xos mehr-oqibat, insonparvarlik, shukronalik, saxovat va bag‘rikenglik kabi ezuq fazilatlarini mujassam etgan muborak Qurbon hayiti munosib nishonlash, ushbu qutlug‘ ayymoda aholini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash maq-sadida qaror qilaman:

I. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini

1. O‘zbekiston musulmonlari idorasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik), Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda “Vaqf” xayriya jamoat fondining muborak Qurbon hayiti munosabati bilan aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “SIFATLI DAVLAT BOSHQARUVI” DASTURI BO‘YICHA FORUM VA TAQDIRLASH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Hurmatli Muhammad al-Gargaviy ja-noblari! Avvalambor, barchangizni “Sifatli davlat boshqaruvi” dasturi doirasida o‘tkazilayotgan bugungi muhim tadbir va taqdirlash marosimi bilan samimiy qutlayman.

Yaxshi xabardorsiz, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar markazida inson qadriini ulug‘lash, aholi va tadbirkorlar uchun munosib sharoitlar yaratish asosiy o‘rin egallaydi. So‘nggi 10 yilda “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idora-lari xalqqa xizmat qilishi lozim”, degan olijanob falsafani davlat siyosati darajasiga ko‘tardik.

Boshqaruv sohasida aholi uchun samara-li tizim yaratmasdan turib, hech bir yo‘nalishda kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki har

bir fuqaro o‘z kundalik hayotida his qilayotgan ijobiy o‘zgarishlar orqali davlat faoliyatiga baho beradi. Boshqaruv idoralari odamlarning muammosini, ularni qiynayotgan o‘tkir masalalarni o‘z vaqtida va adolatli hal etsa, aholining davlatga nisbatan ishonchi keskin ortadi. Ortiqcha qog‘ozbozlik va byurokratiya esa islohotlar samarasini pasaytirib, xalqning umidini so‘ndiradi.

Shuni inobatga olib, davlat boshqaruvida yangicha va ilg‘or yondashuvlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratmoqdamiz. Albatta, samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, sohaga zamonaviy modellarni joriy qilish, Birlashgan Arab Amirliklari erishgan yutuq va ilg‘or tajribani tatbiq etish biz uchun foydali bo‘lmoqda.

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MILLIY KITOBXONLIK HARAKATI BOSHLANISHIGA BAG‘ISHLANGAN MAROSIMIDAGI NUTQI

Hurmatli tadbir qatnashchilari! Hurmatli Muhammad al-Gargaviy janoblari!

Aziz yosh kitobxonlar! Bugun mamlakatimiz hayotidagi yana bir unutilmas tarixiy voqea — O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha umummilliy harakatga start berilmoqda.

Hammamizga ma‘lumki, dunyo shiddat bilan o‘zgarayapti. Hayotimizga raqamli texnologiyalar, zamonaviy gadjetlar va sun‘iy intellekt tobora chuqur kirib kelmoqda. Inson ongi va qalbini boshqarishga qaratilgan bosimlar kun sayin kuchaymoqda. Lekin bir haqiqat borki, u hech qachon o‘zgar olmaydi. Ya‘ni kitob o‘qiydigan odam teran va sog‘lom fikrlaydi. Bunday tafakkurga ega inson esa jamiyatni o‘zgartira oladi.

Sun‘iy intellekt asrida odamzodning ega ustunligi — mustaqil fikrlay olish qobiliyatidir. Kitoblar bu yo‘lda ega yaxshi do‘st va beg‘araz ko‘makchi hisobla-nadi.

Davomi 2-beta

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING FUTBOL BO‘YICHA O‘ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASI A‘ZOLARI BILAN UCHRASHUVIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Terma jamoa a‘zolari! Qadrii ustoz va murabbiylar! Futbolimiz faxriylari! Barchangizni katta futbol bayrami — AQSH, Meksika va Kanada maydonlarida bo‘ladigan jahon chempionati oldidan sog‘salomat va yaxshi kayfiyatda ko‘rib turga-nimdan xursandman.

Biz bu kunlarni butun xalqimiz, futbol ishqibozlari bilan 34 yil kutdik. Shu ma‘noda, futbolchilarimizni O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochgan zamonamiz qahramonlari deb aytisak arziydi. Chunki ular har bir o‘yinga yuqori tayyorgarlik ko‘rib, yuksak mas‘uliyat, vatanparvarlik ruhi bilan faqat g‘alaba uchun maydonga tushdi. Xalqimizga olam-olam quvonch bag‘ishladi.

Davomi 2-beta

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING FUTBOL BO‘YICHA O‘ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASI A‘ZOLARINI JAHON CEMPIONATIGA TANTANALI KUZATISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli yurtdoshlar! Aziz futbol muxlislari! Barchangizni bugungi fayzli oqshomda o‘tkazilayotgan katta futbol bayrami bilan tabriklayman.

Bugun — o‘zbek futbolini uchun yana bir tarixiy kun. Katta ishonch va ezuq tilaklar bilan milliy terma jamoamizni AQSH, Meksika va Kanada maydonlarida bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionatiga kuzatamiz.

Fursatdan foydalanib, bizga mana shunday unutilmas kunlarni taqdim etgan maho-ratli futbolchilarimizga, ularni tarbiyalab, voyaga yetkazgan ota-onalariga, ustoz va murabbiylariga, terma jamoamizning barcha a‘zolariga butun xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildiraman. Qadrii do‘stlar!

Sizlarning milliy jamoaga bo‘lgan mehringiz va sadoqatingiz har qancha tah-singa loyiq. Issiqni

issiq demay, yomg‘irni yomg‘ir demay, g‘alaba onlarida ham, qiyin damlarda ham futbolchilar bilan birga bo‘lib, haqiqiy vatanparvarlik namunasini ko‘rsatib kelyapsiz. Buning uchun stadionni to‘ldirib o‘tirgan muxlislarga, sizlar orqali futbolsevar xalqimizga alohida rahmat aytaman.

Bugun stadionda fan-klublarimizni ham ko‘rib turibman. Ular terma jamoa o‘yinlarini nafaqat tribunandan kuzatayapti, balki futbolchilar bilan birga kurashayapti, futbolning ichida yashayapti.

Fan-klublar a‘zolari har bir o‘yinda chin o‘zbekona, betakor ushlab bilan o‘n ikkinchi o‘yinchi vazifasini munosib bajarib kelyapti, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham fikrimga qo‘shilasiz.

Davomi 2-beta

Biz uchun futbol nafaqat professional sport turi, balki yoshlar tarbiyasi, sog'lom turmush, intizom va vatanparvarlik maktabi bo'ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING "SIFATLI DAVLAT BOSHQARUVI" DASTURI BO'YICHA FORUM VA TAQDIRLASH MAROSIMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda ushbu mamlakat bilan davlat boshqaruvi sohasidagi hamkorlik mut-laqo yangi bosqichga ko'tarildi. O'tgan yilning noyabr oyida "Byurokratiyani bartaraf etish" hamda sun'iy intellekt bo'yicha nufuzli xalqaro forumlarni birgalikda yuqori saviya-da o'tkazdik. Shuningdek, davlat boshqaruvida ilg'or tajriba almashish yuzasidan hamkorlik kelishuvini imzoladik. "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi ana shu shiriklikning yorqin amaliy natijasidir. Ushbu dasturni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishda ko'rsatgan ko'magi uchun Amirliklar rahbariyati va shaxsan Gargaviy janoblarga samimiy minnatdorli-gimini bildiraman.

Hurmatli tadbir qatnashchilari! Bugungi taqdirlash marosimini Prezident darajasida o'tkazayotganimiz bejiz emas, albatta. Bu yerda faqat g'oliblarni e'tirof etish bilan cheklanib qolmasdan, samarali boshqaruvning ahamiyati qanchalik muhim ekaniga yana bir bor diqqatlingizni qaratmoqchiman.

Vazirlik va agentliklar, qo'mita va inspeksiyalar faoliyatini xolis baholash, ularning aholi oldidagi mas'uliyatini yanada oshirish endi doimiy e'tiborimizda bo'ladi. Bundan buyon "jarayon uchun" emas, "natija uchun" ishlash tamoyili idoralari faoliyatida asosiy mezonga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi mutlaqo yangi boshqaruv madaniyati va dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan islohotdir. Ushbu dastur davlat idoralari faoliyatini xolis baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, eng ilg'or tajribalarni keng omalashirish hamda sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashni ko'zlaydi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida dastur doirasida davlat idoralari faoliyati, boshqaruv sifati va rahbar kadrlarning yetakchilik qobiliyati xalqaro ekspertlar hamda mahalliy mutaxassislar tomonidan baholandi.

Tanlovda respublika miqyosidagi 40 ta idora va ularning xodimlari ishtirok etdi. Bugun qaysi davlat idoralari yuqori natijaga erishganiga barchamiz guvoh bo'lamiz.

Misol uchun, Adliya vazirligi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha eng namunali vazirlik nominatsiyasida g'olib deb topildi. Vazirlik qisqa vaqt ichida zamonaviy, ochiq va raqamli adliya institutiga aylandi. Bugungi kunda xo'zirlik 30 ta platforma orqali to'liq raqamlashtirilgan 380 ta xizmatni ko'rsatmoqda. 780 dan ortiq xizmatdan onlayn foydala-nish mumkin. 208 ta davlat xizmatlari mar-kazidan iborat tarmoq butun mamlakatimiz bo'y lab yagona standartni ta'minlamoqda.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi resurslarni boshqarish bo'yicha eng namunali vazirlik sifatida e'tirof etildi. Mazkur idora mas'uliyatli, shaffof va tejamkor xo'jalik yuritishning yorqin namunasi-ga aylandi. Ajratilgan har bir so'm yangi konlarni qidirib topish va sohani rivojlantirishga sarflandi. Geologiya-qidiruv ishlarida suv sarfi 20 foizga qisqar-tirildi. Byudjet rejalari 2028-yilga qadar oldindan tuzib chiqilgan. Asosiy konchilik uskunalarini mahalliyashtirish darajasi 84 foizga yetkazildi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi ijobiy natijalari uchun Ichki ishlar vazirligi eng namunali deb tan olindi. Bugungi kunda vazirlik 60 ga yaqin xizmat turini ko'rsatayotgan bo'lsa, ularning 95 foizi to'liq raqamli shaklda taqdim etilayotgan diqqatga sazovor. Ilgari tarqoq bo'lgan 72 ta ma'lumotlar bazasi yagona "Xavfsiz shahar" tizimiga birlashtirilib, unga 14 ta boshqaruv markazi va 20 dan ortiq vazirlik ulangan. O'tgan yili 148 mingdan ortiq ma'muriy ish masofaviy tarzda ko'rib chiqildi va odamlarning idorama-idora sar-son ko'lishiga yo'l qo'yilmadi. Vazirlik zamonaviy davlat xizmatlari inson uchun yaratilgan qulaylik bilan o'lchanishini amalda ko'rsatmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Ushbu tanlovning bosh maqsadi — kimdir maqtash yoki tanqid qilish emas. Eng muhimi, bu jarayon davlat idoralarga o'z faoliyatiga chetdan turib xolis nazar tashlash, kamchiliklarni bartaraf etib borish imkonini beradi.

Shuningdek, tanlov doirasida, Tog'-kon va geologiya vazirligi boshqarma boshlig'i Maqsud Bolibekov eng namunali rahbar xo-dim; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

vazirligi bo'lim boshlig'i Fazliddin Mo'minov eng namunali ma'muriy xodim; "O'zatom" agentligi bosh mutaxassisi Shohmirzo Umarov eng namunali mutaxassis xodim; Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri maslahatchisi Ummatoy Yo'l-dosheva eng namunali ayol xodima; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi loyiha ofisi rahbari Akbarxon Sobirxonov eng namunali iste'dodli yosh xodim; Adliya vazirligi bo'lim boshlig'i Mirsaid Rahmatov inson resurslari bo'yicha eng namunali xo-dim sifatida g'olib bo'ldilar.

Hozir e'tirof etilgan barcha g'oliblar-ning lavozimlarini bir pog'ona ko'tarib, rahbar kadrlar xazinasiga kiritsak, o'ylaymanki, bu ham adolati ish bo'ladi. Ularning teran fikrlashi, o'z ustida doimiy ishlashi, mehnat faoliyatiga innovatsion yondashuv-larni joriy qilishi boshqalar uchun o'mak bo'lmog'i lozim.

Bugungi tadbirda yaxshi natija ko'rsatganlarni e'tirof etyapmiz. Biroq kelgusi safardan boshlab ro'yxatning oxirida qolgan davlat idoralari nomini ham ochiq aytamiz. Faoliyatida jiddiy kamchiliklar ko'zga tashlanayotgan, samaradorlik va xizmat si-fati bo'yicha oqsayotgan tashkilotlar bundan o'ziga jiddiy xulosa chiqarishi kerak.

Endi "Sifatli davlat boshqaruvi" das-turi har ikki yilda o'tkazilib, kelgusi bosqichdan unda mahalliy hokimliklar ham ishtirok etadi. Chunki islohotlar natijasi, avvalo, eng quyi bo'g'inda sezilishi kerak. Sodda qilib aytganda, agar tuman yoki shahar darajasida o'zgarish bo'lmasa, har qancha urinmaylik, islohotlarimiz kutilgan na-tijani bermaydi.

Qadrlı do'stlar!

Bugun biz mamlakatimizda davlat boshqaruvinı takomillashtirish borasida yangi, zamonaviy bosqichni boshlayapmiz. Bu borada xalqimiz ishonadigan va inonadigan, inson qadri har tomonlama ulug'laydigan, oddiy odamlarning og'irini yengil qiladigan eng samarali davlat tizimini yaratishga bundan buyon ham asosiy urg'u beramiz.

Ushbu yo'lda barchamiz birgalikda qat'iy harakat qilsak, bor kuch-g'ayratimizni safarbar etsak, ko'zlagan baland marralarga albatta erishamiz.

Barchangizga mustahkam sog'liq, yangi za-farlar va farovonlik tilab qolaman.

Boshlanishi 1-betda

Bugungi yoshlarimiz ana shunday buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishlari zarur. Buning yagona yo'li — **bilim, bilim va yana bir bor bilim!**

Qadrlı do'stlar! Biz xalqaro maydonda qudratli va yuksak salohiyatli xalq sifatida o'zimizni namoyon etishimiz uchun ikkita mustahkam asosga taya nishimiz lozim.

Birinchisi — bebaho ilmiy va ma'naviy merosimiz.

Ikkinchisi — zamonaviy ilm-fan va ilg'or texnologiyalar.

Ana shu manbalarni uyg'unlashtirib, chuqur fikrlaydigan, bilimli, vatanparvar avlodni tarbiyalash — eng muhim vazifamiz.

Men davlat rahbari sifatida o'z faoliya-timni boshlagan dastlabki kunlardan bu masalaga ustuvor ahamiyat qaratib kelyapman. Shu maqsadda mamlakatimizda 2017-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi millionlab yoshlarni kitobga oshno qildi, ularda o'qishga mehr va rag'bat uyg'ot-di. "Yosh kitobxon oila" tanlovi esa kitob-xonlik muhitini har bir oilaga olib ki-rishga xizmat qilmoqda. Joriy yil boshida alohida qaror qabul qilib, eng faol kitob-xonlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yganimiz ushbu ishlarning uzviy davomi bo'ldi.

Xabaringiz bor, kuni kecha "Yosh kitobxon" tanlovining navbatdagi respublika bosqichi yakunlandi. Unda yurtimizning barcha hududlaridan kelgan 42 nafar eng bilimdon, zukko o'g'il-qizlarimiz o'z iqtidori va salohiyatlarini to'liq namoyon etdi. Tanlov yakunlariga ko'ra, Farzona Nosirova, Jasurbek Abdug'afurov va Fazilat Diyorova g'olib deb topildi. Ular hozir davramizda o'tirishibdi. Bugun g'oliblar keng jamoatchilik ishtirokida Prezident sovg'asi — zamonaviy avtomobil bilan taqdirlandilar. Ularning yutug'i o'zlari kabi millionlab yoshlarga ibrat va katta rag'bat bo'ldi, desam, aslo anglashmayman. Bunday kitobsevar o'g'il-qizlarimizning safi tobora kengayib borayotgani barcha-mizni cheksiz quvontiradi.

Fursatdan foydalanib, men bu kitobxon farzandlarimizni, ularning ustozlari va ota-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING MILLIY KITOBXONLIK HARAKATI BOSHLANISHIGA BAG'ISHLANGAN MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

onalarini chin qalbidan tabriklay-man, barchalarga rahmat aytaman.

Iqtidorli, zehni o'tkir, izlanish va intilishdan to'xtamaydigan yoshlar — Yangi O'zbekistonning haqiqiy tayanchi va suyanchidir.

Biz ushbu tanlovlarni o'tkazish bo'yicha mamlakatimizda katta tajriba to'pladik. Bu borada dunyodagi ilg'or an'analarni ham chuqur o'rgandik. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklari kitobxonlik bo'yicha butun dunyoga ibrat namunasi bo'lib kelmoqda. 2015-yilda Shayx Muhammad bin Rashid Ol Maktum Hazrati Oliyolarining tashabbusi bilan boshlangan "Arab kitobxonlik tan-lovi" dasturi bugungi kunda jahondagi eng yirik ma'rifiy tashabbuslardan bi-riga aylandi. Qisqa fursat, atigi 10-yil davomida ushbu harakat jahondagi 200 milliondan ortiq o'quvchilarni qamrab oldi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi yaqin do'stlik va strategik sheriklik doirasida bu ezgu g'oyani boy ma'naviy merosimiz asosida yur-timizda yangi bosqichga olib chiqishga qaror qildik.

Fursatdan foydalanib, Amirliklar hu-kumatiga va hukumat ishlari bo'yicha vaziri Muhammad al-Gargaviy janoblariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Aziz farzandlarim!

Bugun sizlar kitobxonlikni umumimilliy xalq harakatiga aylantirish yo'lida tarixiy qadam qo'ymoqdamiz. Boshlanayotgan "Milliy kitobxonlik haraka-ti" dasturi avvalgi tashabbuslarimizning ajralmas qismi bo'ladi. Men kuni kecha ushbu dasturni davlat miqyosida faol o'g'lab-quvvatlash uchun alohida famoyish imzoladim. Endi har yili ushbu tadbir-ning final bosqichi Prezident daraja-sida o'tkaziladi. Uning umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Bu — mamlakatimiz tarixida kitobxonlik bo'yicha eng salmoq-li mukofotdir.

Mazkur harakat yurtimizning barcha hu-dudlarini to'liq qamrab oladi. Unda mam-lakatimizning umumta'lim maktablari, jumladan, 1-sinfdan 11-sinf-gacha bo'lgan o'quvchilar uchun ishtirok etish imkoniyati yaratiladi.

Qaysi maktab eng kitobxon maktab bo'la-di? Qaysi hudud eng faol ishtirok etadi?

Qaysi o'quvchi 50 ta kitobni birinchi bo'lib o'qib tugatadi?

Shu savollar yurtimizning intiluvchan va zakovatli yoshlarini kitob degan mo'jiza atrofi-da birlashtirishi, ularning qalbidagi yangi bunyodkorlik ruhini uyg'otishi lozim. Men barcha maktablarda, umuman, jamiyati-mizda kitobxonlik muhiti, sog'lom ongu ta-fakkur ustuvor bo'lishini istayman.

Yurtimizdagi o'g'il-qizlarimiz orasidan kelajakda buyuk olimlar, ixtirochilar, shoir va adiblar albatta yetishib chiqadi. Men ular-ga qarata aytmoqchiman: **hayotda yuksak mar-ralarga erishgan insonlarning barchasida bir umumiy fazilat bor — ular ko'p kitob o'qishgan, har kuni mutolaa qilishgan. Ki-tob ularning bir umrlik donishmand va sadoqatli do'sti bo'lgan.**

Shu o'rinda muhtaram ustozlar va hur-matli ota-onalarga ham murojaat qilmoq-chiman.

Qaysi xonadonda kitob o'qilsa, o'sha oilada bilim va ma'naviyat bo'ladi. Qaysi jamiyat ko'p o'rgansa, izlansa, o'sha jamiyat albatta taraqqiy etadi.

Men ushbu dasturni shunchaki kitob o'qish musobaqasi emas, balki jonajon Va-tanimiz kelajagi uchun strategik investi-siya deb bilaman. Agar biz bugun bolalari-mizning qo'lga yaxshi kitob bersak, ertaga ular Yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga albatta qodir bo'ladi. Shuning uchun barchangizni ushbu umumxalq harakati-da faol ishtirok etishga chaqiraman.

Qadrlı o'g'il-qizlarim! **Albatta, telefon tutish oson, gadjet-lardan foydalanish qulay. Biroq kitob bilan do'stlashgan inson hayot yo'lida uzoqqa boradi. Kitob o'qigan va undagi ezgu ma'nolarni anglagan millat hech qachon yengilmaydi.**

Ulug' ma'rifatparvar bobolarimizning "Ilmdan boshqa najot yo'q", degan hikmat-li so'zlarining ma'no-mazmunini biz butun mamlakat miqyosida hayotga tatbiq etyapmiz. Men bu olijanob g'oya har bir o'g'il-qizning qalbidan chuqur joy olishini, hayotning ol-tin qoidasiga aylanishini tilayman.

Barchangizni yurtimizda ushbu muhim tarixiy harakat boshlangani bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklayman.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOEVNING FUTBOL BO'YICHA O'ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASI A'ZOLARI BILAN UCHRASHUVIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Aziz farzandlarim, ko'ryapsizlarmi, sizlar nafaqat sport rivojiga hissa qo'shayapsiz, balki tadbirkorlarimizga yangi imkoniyatlar eshigini ochyapsiz, adabiyot va san'at ahliga yangi ilhom, yangi ruh va qanot beryapsiz. Yoshlarimizga haqiqiy o'mak bo'ldingiz, "men ham mashhur futbolchi bo'laman", degan bolajonlarimiz safi ko'payib boryapti. Ko'p millatli xalqimiz sizlar bilan doim faxrlanadi!

Qadrlı do'stlar! Albatta, hech narsa o'zidan-o'zi bo'lib qolmaydi, bunday g'a-labalarga osonlikcha erishilmaydi. Yurtimizda sportga, xususan, futbolga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan sharoitlar bu yutuqlarga katta zamin bo'ldi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

So'nggi yillarda joylarda 200 dan ziyod yirik sport in-shootlari, 4 mingga yaqin xususiy sport klublari ish boshladi, 1,5 mingdan ortiq mahallada sport maydonchalari qurib berildi, poytaxtimizda zamonaviy Olimpiya shaharchasini barpo etdik, Yuqori Chirchiqda "Milliy futbol markazi"ni ishga tushirdik, har bir viloyatda bittadan professional futbol akademiyasi va futbol maktablarini tashkil qildik.

Ana shu ishlarimiz hisobigahavaskor futbolchilar soni 5 millionga yetdi, futbol bilan muntazam shug'ullanuvchilar 1 million 300 mingdan oshdi, professional futbolchilar esa 17 mingga yetdi. Eng asosiy, biz futbolda korrupsiya, tanish-bilishchilik degan illatni yo'q qildik. Ochiq va shaffof tizim yaratdik. Bu — eng iqtidorli yoshlarni, chinakam iste'dodlarni katta maydonga olib chiqdi.

Mana, davramizda futbolimiz faxriylari ham o'tiribdi. Ular ham o'z maslahatlari bilan bu ishlarimizni qo'llab-quvvatlashdi, duoda bo'lishdi. Sizlarga ham katta rahmat. Aziz yurtdoshlar!

Biz uchun futbol nafaqat professional sport turi, balki yoshlar tarbiyasi, sog'lom turmush, intizom va vatanparvarlik maktabi bo'ladi. Endi yurtimizdagi har bir mahallaga futbol nafasi kirib boradi. Har bir bolaga o'z mahallasida to'p tepish, musobaqalarda qatnashish, o'z iste'dodini ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun "Har bir mahalla — futbol maydoni" dasturini boshlaymiz.

Bu — umumimilliy harakatga aylanadi. Dastur doirasida "Mahalla ligasi" tashkil etilib, 12-17 yoshli o'g'il-qizlar o'rtasida mahalla futbol jamoalari tuziladi, har yili havaskor futbolchilar ishtirokida "mahalla — tuman — viloyat — respublika" bosqichlaridan iborat musobaqalar o'tkaziladi.

Umuman, "Mahalla ligasi" eng yaxshi iqtidorlarni seleksiya qilishda professional klublar uchun tayyor baza bo'ladi.

Hurmatli do'stlar! Maydonga to'pni futbolchi tepadi, lekin o'yin uslubi

va taktikani murabbiy belgilaydi. Bugun terma jamoamiz bilan katta tajriba va chempionlik xarakteriga ega Fabio Kannavaro boshchiligidagi murabbiylar shtabi ishlayapti. Biz Fabio Kannavaroni futbolchilik davridan yaxshi bilamiz.

2006-yilda Germaniyada o'tkazilgan mundialda Kannavaro sardorlik qilgan Italiya terma jamoasi jahon chempioni bo'lgan. O'sha yili Kannavaro dunyoning eng yaxshi o'yinchisi deb e'tirof etilgan va futbol tarixida "Oltin to'p" sohibi bo'lgan kam sonli himoyachilardan biriga aylangan. Zidan, Ronaldu kabi zamonaviy futbol afsonalari ham Kannavaroni o'zlariga qarshi o'ynagan eng kuchli himoyachi deb tan olgan.

Kannavaroning maydondagi o'yinni oldindan sezish, his qilish qobiliyati, tartib-intizomi va liderlik xususiyatlari uning murabbiy bo'lib shakllanishiga zamin yaratdi. Fabio Kannavaro O'zbekistonga endi kelgan kunlarida jismoniy tayyorgarlik va intizom masalasiga ko'p to'xtal-gan edi. Shuning uchun futboldagi har bir kichik detalga ham e'tibor qaratib, jismoniy tayyorgarlik va hujumchilar bilan ishlaydigan murabbiylarni, shifokor, nutritsio log va oshpazlarni olib keldi hamda xalqaro tajribaga ega yaxshi jamoani shakllantirdi.

Futbolchilarimiz o'yinida ko'ryapmiz: to'g'ri pozitsiya tanlash, yuqori pressing, to'p nazorati, tezkor qarshi hujum kabi futbol elementlari ko'paydi. Misr, Eron, Venesuela va Gabonga qarshi o'yinlarda bunga barchamiz guvoh bo'ldik.

Fursatdan foydalanib, Fabio Kannavaroni murabbiy sifatida mundialdagi birinchi ishtiroki bilan tabriklab, murabbiylar shtabiga yangi zafarlar tilayman.

Endi futbolchilarga qarata aytmoqchiman: jahon chempio-natida oson o'yinning o'zi bo'lmaydi. Sizlar Portugaliya, Ko-lumbiya, Kongo kabi kuchli terma jamoalarga qarshi o'ynaysiz. Xalqimiz har bir o'yinda sizlardan g'alaba kutishi tabiiy, albatta. Lekin, bir haqiqatni doimo yodda tuting, sizlar tarixni allaqachon yaratib bo'ldingiz!

Oldingizda turgan muhim uchrashuvlarda ortiqcha bosim-siz, hech kimdan hayiqmasdan, boringizni berib o'ynang!

Har bir to'p uchun, har bir vaziyat uchun, maydonning har bir qarichi uchun oxirigacha kurashing! Barcha mas'ullarga, elchilarga topshiriq berganman. Mun-dialdagi hamma o'yinlarigizda fan-klublar a'zolari, ming-lab futbol muxlislari, Amerikadagi vatandoshlarimiz ham stadiondagi sizlarni qo'llab-quvvatlab turadi.

Maydondagi har bir harakatigizni 40 millionli xalqimiz ekran ortida katta hayajon bilan, hayqirib kuzatadi, yuraklarni jumbushga keltiradigan hissiyot va hayajonga ega bo'ladi.

Yodingizda bo'lsin: el-yurtimiz sizlarga ishonadi, Prezi-dent sizlarga ishonadi!

Har bir raqibga qarshi mardonavor bellashib, Vatan sba-rafini munosib himoya qiling!

G'alaba va omad sizlarga hamisha yor bo'lsin!

Boshlanishi 1-betda

Ishonchim komil, ular mundialda ham ming-lab yurtdoshlarimiz, xorijdagi vatandoshlarimiz bilan birga, xuddi hozirgidek g'ayrat-shijoat va hayqirib bilan futbolchilarimizni qo'llab-quvvatlashadi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Yurtimizda futbol allaqachon har bir oilaning do'stiga aylanib ulgurgan, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'rib turibman, bugun ham ko'pchiligigiz stadionga farzand va nabiralaringiz bilan kelgansiz. Sportchilarimiz erishayotgan yutuqlardan ruhlanib, ularning orasidan ham yangi-yangi chempionlar albatta chiqadi.

Yangi O'zbekistonda sportga qaratilayotgan e'tibor, har bir hududda bunyod etilayotgan yirik sport inshootlari, joylarda tashkil etilayotgan professional futbol akademiyalari, yaqinda ish

boshlagan "Milliy futbol markazi" yoshlarimiz yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritishi uchun mustahkam zamin bo'ladi.

O'tgan yili poytaxtimizda 100 gektardan ziyod maydonda 5 ta yirik sport majmuasini o'z ichiga olgan Olimpiya shaharchasini qurib bitkazdik. Yangi Toshkentda FIFA standartlariga to'liq javob beradigan 55 ming o'rinli muhtasham stadion qad rostlamog'da. Bu stadion yurtimizdagi millionlab futbol muxlislari uchun katta sovg'a bo'ladi. Bunday zamonaviy inshootlar mamlakatimizda ko'plab nufuzli xalqaro sport musobaqalarini o'tkazishga xizmat qiladi. Sportchilarimizni yanada ulkan va yorqin g'alabalar sari yetaklaydi.

Qadrlı terma jamoa a'zolari!

Bugun xalqimiz yuqori kayfiyat bilan sizlarga oq fotiba berib, katta mundialga kuzatmoqda. Sizlarni oldinda Portugaliya, Kolumbiya, Kongo kabi kuchli terma jamoalar bilan muhim o'yinlar kutib turibdi.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI SUDYALAR KENGASHLARI RAHBARLARINING IV YIG'ILISHI ISHTIROKCHILARIGA

Boshlanishi 1-betda

Muhtaram do'stlar!

Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash, samarali bosh qaruv va inson huquqlarini himoya qilish masalalari alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, dunyo ning geosiyosiy xaritasida tub o'zgarishlar yuz berayotgan, qarama-qarshiliklar ko'lami, nizolar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab vaziyatda ana shu masalalarni birgalikda muhokama qilish va bu borada samarali yechimlar topish dolzarb ahamiyatga egadir.

Albatta, mamlakatlarimiz hayotida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi, inson huquqlarini himoya qiluvchi va kuchli sudyalari korpusini yaratishda Sudyalari kengashlaridan umidimiz katta.

Ayni shu jihatdan qaraganda, bugungi yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar Kengashlarning istiqboldagi faoliyatida

yangi yo'nalishlarni belgilab beradi deb ishonaman.

Xususan, anjuman doirasida imzolani-shi kutilayotgan A'zo davlatlarda Cudyalari odobi-ning umumiy prinsiplari to'g'risidagi o'zaro anglashuv memorandumi turkiy xalqlarning tarixiy-huquqiy an'analari umumiyli-gi va sud tizimlari o'rtasida musharak axloqiy me-zonlar hamjihatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, bu muhim hujjat sudyalarning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan xalq-atvor mezonlarining ahamiyatini e'tirof etib, milliy huquqiy an'analarga hurmat bilan yondashishni ham ko'zda tutadi.

Ta'kidlash lozimki, joriy yilning 6-mayi da Toshkentda bo'lib o'tqan Odil sudlov akademiyalari forumida sud-huquq sohasida turkiy davlatlar ta'lim tizimini tashkil etishning minimal standartlariga oid xalqaro hujjat qabul qilindi.

Bu mamlakatlarimizda sudyalarni tayyor-lashning yangi va universal tizimini joriy etishga

Katta kuch-g'ayrat bilan, ishonch bilan may-donga chiqing!

Shuni bilingki, biz doim sizlar bilan birgamiz! Haqiqiy o'zbekona jasorat, matonat va irodangiz bilan chiroyli va ishonchli o'yin ko'rsatib, barchamizni xursand qilisliz deb ishonamiz.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun sizlarning qatoringizda mening qalbm ham faxr va iftixorga to'lib turibdi. O'zbek xalqi hamisha katta orzu-umidlar bilan faqat oldinga intilib yashagan. Kelinglar, bugun hammamiz yaxshi niyat qilaylik:

Yangi O'zbekiston sporti yanada rivoj-lansin, futbolimiz yanada gullab-yashnasin!

Barchangizga mustahkam sog'liq, omad va za-farlar yor bo'lsin!

Yashasin o'zbek futbolii! Yashasin Yangi O'zbekiston yoshlari!Yashasin bunyodkor O'zbekiston xalqi!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

MUBORAK QURBON HAYITI MUNOSABATI BILAN AHOLINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH VA MEHR-SAXOVAT TADBIRLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH TO'G'IRISIDA

Boshlanishi 1-betda

a) quyidagi toifadagi bemorlarning tibbiy tekshiruvdan o'tish, jarrohlik amaliyoti va davolash xarajatlarini qoplash:

i) og'ir va nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasalliklarga chalingan 10 ming nafar bolalarda jarrohlik amaliyotini o'tkazish;

ii) 2,3 ming nafar onkologik, gematologik va onkogematologik tashxis qo'yilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, ularni davolash va jarrohlik amaliyotini o'tkazish;

iii) kamida 350 nafar bemorlarda jigar va buyrak transplantatsiyasi amaliyotini o'tkazish;

b) ijtimoiy himoyaga muhtoj quyidagi bolalarning omonat hisobvaraqlariga 200 AQSH dollari miqdoridagi pul mukofotini o'tkazish:

i) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar (vasiylik, homiylik va patronatdagi bolalar);

ii) Mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uylari, kichik hajmli bolalar uylari hamda "SOS" bolalar mahallasi tarbiyalanuvchilari;

iii) Vatan sarhadlarini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan ota-onalarning farzandlari;

iv) "Taskin Children's Hospice" bolalar onkologik shifoxonasida davolanayotgan bolalar;

v) 500 ta masjidida aholi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida ularda zamonaviy tahoratxonalar qurish, rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash hamda joylardagi qabristonlarni obod qilish.

2. Belgilansinki, mazkur qarorning 1-bandi "a" kichik bandida nazarda tutilgan bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, jarrohlik va davolash amaliyoti Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydigan tibbiyot tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda:

a) bemorlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, jarrohlik va davolash amaliyoti o'tkazish bilan bog'liq tadbirlar doirasida donorlarning xarajatlarini qoplash ko'zda tutiladi;

b) tibbiyot tashkilotlari tomonidan davolash tadbirlari tasdiqlangan standartlar hamda klinik protokollarda nazarda tutilgan tibbiy nazorat Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi.

3. Belgilansinki, mazkur qarorda nazarda tutilgan tadbirlar davlat maqsadli jamg'armalari hamda qonunchilikda taqablangan boshqa manbalardan ajratiladigan 690 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar hisobidan "Vaqq" xayriya jamoat fondi orqali moliyalashtiriladi.

4. O'zbekiston musulmonlari idorasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda keng jamoatchilik vakillarining quyidagi takliflari ma'qullansin:

a) muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish hamda ushbu maqsadlarda ko'ngilli xayriya hasharlarini o'tkazish;

b) ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalari uchun ehson dasturxonlarini yozish hamda ziyoratgohlar va diniy ta'lim tashkilotlarida qurbonlik tadbirlarini tashkil etish.

II. Qorir ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

5. Muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish va mehriyot tadbirlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari raisiligidagi hududiy kengashlar (keyingi o'rinlarda — hududiy kengashlar) tashkil etilsin va ularning namunaviy tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Quyidagilar hududiy kengashlarning asosiy vazifalari etib belgilansin:

a) aholini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mehriyot va xayriyalar tomonidan muvofiqlashtirish va xayriyalar tomonidan muvofiqlashtirish;

b) yurim�idagi muqaddas qadamjolar, masjidlar va qabristonlarni obod qilish va aholida ajdodlar xotirasiga hurmat-ehtirom ko'rsatish tuiy'ularini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish;

v) mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar doirasida yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor bartaraf etish.

7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq "Vaqq" xayriya jamoat fondi orqali tibbiy tekshiruv, jarrohlik va davolash amaliyoti xarajatlarini qoplash quyidagi tartibda moliyalashtiriladi:

a) tibbiy tekshiruv, jarrohlik va davolash amaliyoti o'tkaziladigan kasalliklar ro'yxati Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi;

b) bemorlarni tegishli tibbiyot tashkilotiga yo'llash va davolash Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "Davlat axborot tizim-larini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator — "UZINFOCOM" MCHJ bilan birgalikda ular to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot moduliga kiritish orqali amal-ga oshiriladi;

v) tibbiy tekshiruv, jarrohlik va davo-lash amaliyoti o'tkazilgan bemorlarga ko'rsatilgan xizmatlar xarajatlarini qoplash Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Preziden-tining 2026-yil 17-fevraldagi "Muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini to'g'risida"gi PQ-67-son qarori doirasida "Vaqq" xayriya jamoat fondiga O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlangan kasalliklar va tibbiyot tashkilotlari ro'yxatiga muvofiq davolanish yoki jarrohlik amaliyotini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash huquqi berilsin.

9. Din ishlari bo'yicha qo'mita O'zbekiston musulmonlari idorasi va Agentlik bilan birgalikda mazkur qarorda nazarda tutilgan Qurbon hayitini munosib nishonlash bilan bog'liq xayriya saxovat va muruvvat tadbirlarining mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

10. O'zbekiston Milliy axborot agentli-gi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun-mohiya-ta'ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini tashkil qilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsan javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari J.A.Qo'chqorov, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi — Ijtimoiy himoya mil-liy agentligi direktori M.P.Olloyorov, O'zbekis-ton Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha departamentining boshlig'i M.M.Kamilov hamda sog'liqni saqlash vaziri E.E.Adilov belgilansin.

12. Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri, 2026-yil 22-may

SH.MIRZIYOYEV

MA'RIFAT, MUTOLAA VA TERAN TAFAKKUR YURT TARAQQIYOTINING QUDRATIGA AYLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimiz xalqaro maydonda o'zini qudratli va yuksak salohiyatli xalq sifatida namoyon etishi uchun ikki mustahkam asosga taya-nishi zarurligi ta'kidlandi. Bular: bebaho ilmiy-ma'naviy merosimiz hamda zamonaviy ilmfan va ilg'or texnologiyalardir.

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki kunlaridan yoshlarni kitobga oshno qilish, ularda bilimga mehr va rag'bat uyg'otishga ustuvor ahamiyat qaratib kelayotganini ta'kidladi. 2017-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi millionlab yoshlarni kitobga yaqinlashtirdi. "Yosh kitobxon oila" tanlovi esa mutolaa muhitini har bir xonadonga olib kirishga xizmat qilmoqda. Muhimi, ushbu tizim yil sayin takomillashtirilmoqda. Xususan, shu yilning boshida qabul qilingan qorir asosida eng faol kitobxonlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yildi. Kuni kecha "Yosh kitobxon" tanlovining navbatdagi respublika bosqichi yakunlandi. Unda mamlakatimizning barcha hududidan kelgan 42 nafar eng bilimdon va zukko yigit-qiz o'z iqtidorini hamda salohiyatini namoyon etdi. Tanlovning uch nafar g'olibi Prezident sovg'asi — zamonaviy avtomobillar bilan taqdirlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi g'oliblarni, ularning ustozlari va ota-onalarini samimiy ta'kidladi. Bunday iqtidorli, izlanuvchan va bilimga chanoq yoshlar yangi O'zbekistonning haqiqiy tayanchi ekani ta'kidlandi.

Ikki marta Uyg'oni-sh davriga asos solgan ajdodlarimiz kitobni do'st tutgan edi. Ular bilim, kitob qayerda bo'lsa, izlab dunyo kezdi. Zamonaviy ibora bilan aytganda xalqaro tajribani o'rganib, bilimlarga uyg'unlashtirib yangilik yaratdi. Uchinchi Uyg'oni-sh davriga poldeyvor qo'yishni maqsad qilgan mamlakat olimlari xalqaro tajribani o'rganishga ehtiyoj sezishi tabiiy. Zero, taraqqiyot davlatlar o'rtasidagi mustahkam, ishonchli aloqalarni talab etadi.

Marosimda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribaga ham e'tibor qaratildi. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklarida 2015-yilda Shayx Muhammad bin Roshid Ol Mak-tum tashabbusi bilan boshlangan "Arab kitob-xonlik tanlovi" dasturi hozir jahondagi eng yirik ma'rifiy harakatlardan biriga aylangan. Qisqa muddatda ushbu tashabbus 200 milliondan ortiq o'quvchini qamrab olgan.



O'zbekiston va BAA o'rtasidagi yaqin do'st-lik hamda strategik sheriklik doirasida ushbu ezu-g'oyani milliy ma'naviy merosimiz asosida yurim�idagi yangi bosqichga olib chiqishga qaror qilindi.

Shu maqsadda "Milliy kitobxonlik harakati" dasturi boshlanmoqda. Davlatimiz rahbari kuni kecha ushbu dasturni davlat miqyosida faol qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida farmoyish imzolaganini qayd etdi.

Endi har yili mazkur tadbirning final bosqichi Prezident darajasida o'tkaziladi. Dasturining umumiy yillik mukofot fondi 240 ming dollarni tashkil etadi. Bosh sovrin sohibi 50 ming dollar bilan taqdirlanadi. Bu yurim�idagi kitobxonlik bo'yicha eng salmoqli mukofot bo'ladi.

Mazkur harakat mamlakatimizning barcha hududini qamrab oladi. Muhimi, tanlovda umumta'lim maktablarining 1-sinfidan 11-sinf-gacha bo'lgan o'quvchilari ishtirok etadi. Maktabga ilk qadam qo'yg'an o'quvchini ham kitobga do'st qilish juda muhim. Ayniqsa, hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda bolaning shakllanish jarayonida kitobga oshno qilish yorqin kelajak kafolatidir.

Prezidentimiz ushbu tashabbus maktablar, oilalar va butun jamiyatda kitobxonlik muhi-tini kuchaytirish, yoshlar qalbidagi yangi bunyodkorlik ruhini uyg'otishga xizmat qilishini ta'kidladi.

— Men ushbu dasturni shunchaki kitob o'qish musobaqasi emas, balki jonajon Vatanimiz

kelajagi uchun strategik investisiya deb bilaman. Agar biz bugun bolalarimizning qo'lga yaxshi kitob bersak, ertaga ular yangi O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo etishga albatta qodir bo'ladilar, — dedi davlatimiz rahbari.

Marosimda Prezidentimiz barcha o'quvchi yoshlar, ustozlar, ota-onalar va keng jamoatchilikni ushbu umummilliy harakatda faol ishtirok etishga chaqirdi.

Kitob o'qigan, bilimga intilgan va ezu-g'ma'nolarni anglagan millat hech qachon yengil-masligi ta'kidlandi. "Ilmdan boshqa najot yo'q" degan ma'rifatparvar ajdodlarimiz g'oya-sini butun mamlakat miqyosida hayotga tabiiy etish muhimligi qayd etildi.

Bugun yangi O'zbekiston Uchinchi Rennasans deb atalgan cho'qqi sari yo'lga chiqqan katta karvondir. Uzoq manzil sari yo'l o'lgan karvon or-tiqcha yuk olmaydi. Tafakkur, bilim bilan erishiladigan yo'ldagi eng muhim buyuk kitobdir. U bizga yo'lining past-balandini oldindan ko'ra oliza, sinovlarni mardona yengib, boshni tik tutib manzilga yetib borishni o'rgatadi. Dunyoga ma'rifat ulashib, ezuqlik sog'inib yashayotgan o'z-bekistonliklar endi yana bir yirik safarbar-lik — Milliy kitobxonlik harakati atrofida yanada jipslashib, olg'a intiladi.

Boboravshan G'oziddinov,

"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ZAMONAVIY BOSHQARUV VA OCHIQLIK MAMLAKAT RIVOJINING ASOSIY MEZONI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 22-may kuni Xalqaro kongress markazida "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi doirasida o'tkazilgan taqdirlash marosimida ishtirok etdi.

"Temur tuzuklari"da aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehti-yotkor, har tomonlama o'ylab ish tutadigan mahorati sarkardalar alohida e'tirof etiladi. Olti asrdan oshsa hamki, Amir Temur bobomiz qayd etgan malakali kadrlar masalasi ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki har bir islohot mohiyati uni amalga oshiruvchi davlat xizmatchisining malakasi va profes-sional mahoratiga bog'liq.

Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad ko'zlangan. Bu maqsad yo'lidagi islohotlar markaziga esa "Inson qadri uchun" tamoyili qo'yilar ekan, Sohobqiron bobomizning ana shu ish tutu-miga zarurat seziladi.

Qolaversa, bugungi globallashtuv va to-bora kengayib borayotgan raqamlashtirish jarayoni davlat fuqarolik xizmatini kompleks transformatsiya qilish ehtiyojini yuzaga keltirayotgandi.

Shu bois, keyingi yillarda uch ming yil-lik milliy davlatlilgimizning bebaho tajribasi va

Qayd etilganidek, vazirlik qisqa mud-datda zamonaviy, ochiq va raqamli institutiga aylandi. Buni raqamlarda ham aniq ko'rish mumkin. Jumladan, hozir vazir-lik tizimida 30 ta platforma orqali 380 ta xizmat to'liq raqamlashtirgan. Shuningdek, 780 dan ortiq xizmatdan onlayn foydalanish imkoniyati yaratilgan. Muhimi, 208 ta davlat xizmatlari markazi butun mamlakat bo'yilab yagona standart asosida ishlatmoqda.

Mana shuning o'ziyoq yangi O'zbekistonda davlat idoralari xalqqa xizmat qila boshla-ganini yaqqol ko'rsatadi. Ayni o'rinda yaqin tarixni eslab o'tsak, Bugun yashash jozi bo'yicha ro'yxatdan o'tish yoki pasport olish uchun onlayn muroj-aat qilish, shu tartibda to'lov-larni amalga oshirish mumkin. Bir paytlar oliy ta'limga hujjat topshirish uchun ham mahalla raisidan ma'lumotnoma olish kerak edi. Bugun bunday byurokratik to'siqlarga barham berilib, onlayn xizmatlar omma-lashdi. Endi bu boradagi ishlar yanada takomillashtirilmoqda.



zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda bu jihaga alohi-da e'tibor qaratila boshladi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda "Xalq davlat idoralari-ga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qi-lishi lozim" degan tamoyil davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu bejir emas, albatta. Zero, bu tamoyil, bir tomondan, xalqning roziligiga erishish, islohotlarga ishonchini mustahkamlash, jamiyatda kechayotgan yangilanish jarayonlari-dagi ishtiroki va daxldorligini oshirish, boshqa tomondan, professional davlat xiz-matchilari korpusini shakllantirish orqa-li pivorad maqsadga xizmat qiladi. Bunda davlat xizmatchisining Amir Temur bobomiz e'tirof etgan jihatlari katta ahamiyatga ega. Chunki aholi ulami davlatning yuzi deb biladi, xizmat vazifasi bilan bog'liq xatti-harakatlarini esa davlatning xalqqa munosabati sifatida tushunadi.

Qisqasi, samarali davlat boshqaruvisiz hech bir sohada ijtimoij natijaga erishib bo'lmaydi. Shu bois, boshqaruv idoralari odamlarning muammolarini o'z vaqtida, ado-latli va tizimli hal etishi zarur.

Islohotlar samaradorligi, fuqarolar-ning davlatga ishonchi ortiqcha qog'ozboz-likdan voz kechib, byurokratik to'siqlarga barham berilishiga bog'liq. Shu bois, yangi O'zbekistonda yangicha va ilg'or yondashuvlar joriy etishga alohida e'tibor qaratilib, davlat boshqaruvida xalqparvarlik tamo-yili ustuvor vazifaga aylanmoqda. Yangi-janishlar jarayoni esa, o'rganish, muayyan tajribaga ega davlatlar bilan hamkorlik tufayli yangi bosqichga ko'tariladi. Shu ma'noda, Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlik bu boradagi ishlar-da muhim o'rinni tutmoqda.

So'nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasida ikki mamlakat o'rtasidagi sherik-lik yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, o't-gan yil noyabrda byurokratiyani bartaraf etish va sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forumlar birgalikda yuqori saviyada o'tka-zildi. Davlat boshqaruvida ilg'or tajriba almashish yuzasidan hamkorlik kelishuvi imzolandi. "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi ana shu hamkorlikning amaliy na-tijasidir.

Prezidentimiz mazkur dastur davlat idoralari faoliyatini xolis baholash, ular-ning kuchli va zaif jihatlari-ni aniqlash, ilg'or tajribasini keng om-mallashtirish hamda sog'lom raqobat muhi-tini shakllanti-rishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Dastur doirasida shu yil yanvar-aprel oylarida respublikaning 40 ta idorasi faoliyati, boshqaruvi sifati va rahbar kadrlarning yetakchilik qobiliyati mahalliy mu-taxassislar bilan birga xalqaro ekspertlar tomonidan baholandi. Bu vaziyatni aniqlab, kelgusi rejalarni yanada puxta tuzishda juda muhim.

Taqdirlash marosimida qator vazir-lik va idoralar erishgan natijalari uchun e'tirof etildi. Xususan, Adliya vazirligi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha eng namunal vazirlik ro-minatsiyasida g'olib deb topildi.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi resurslarini boshqarish bo'yicha eng namu-nali vazirlik sifatida e'tirof etildi. Vazirlikda ajratilgan mablag'lar yangi kon-larni qidirib topish va sohani rivojlan-tirishga yo'naltirilgani, geologiya-qidiruv ishlarida suv sarfi 20 foiz qisqartiril-gani, asosiy konchilik uskunalarini mahalliy-lashtirish darajasi 84 foizga yetkazil-gani ta'kidlandi.

Ichki ishlar vazirligi davlat xizmat-larini ko'rsatishdagi ijobiy natijalari uchun eng namu-nali deb topildi. Ushbu soha-dagi ishlar so'nggi yillarda yangi bosqichga olib chiqildi. Masalan, vazirlik tomoni-dan ko'rsatilayotgan 60 ga yaqin xizmatning 95 foizi raqamli shaklga o'tkazildi. Ayni jihat xalqning davlat idoralari-ga ishonchi mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ilgari tarqoq bo'lgan 72 ta ma'lumot-lar bazasi yagona "Xavfsiz shahar" tizimiga birlashtirildi. Unga 14 ta boshqaruv marka-zi va 20 dan ortiq vazirlik ulangan. O'tgan yili 148 mingdan ziyod ma'muriy ish maso-faviy tarzda ko'rib chiqilgan.

Tanlov doirasida namunal rahbar va mutaxassis xodimlar ham taqdirlan-di. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi boshqarma boshlig'i Maqsd Bolibekov eng namunal rahbar xodim, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo'lim boshlig'i Fazliddin Mo'minov eng namunal ma'mu-riy xodim, Atom energiyasi agentligi bosh mutaxassisi Shohmirzo Umarov eng namu-nali mutaxassis xodim, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri maslahat-chisi Ummatoy Yo'ldosheva eng namunal ayol xodim, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi loyiha ofisi rahbari Akbarxon Sobirxonov eng namunal iste'dodli yosh xodim, Adliya vazirligi bo'lim boshlig'i Mirsaid Rahmatov inson resurslari bo'yicha eng namunal xodim sifatida g'olib bo'ldi.

Davlatimiz rahbari e'tirof etilgan xodimlar lavozimini bir pog'ona ko'tarib, rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish takli-fini bildirdi. Ularning o'z ustida do-miy ishlashi, yangicha fikrlashi va mehnat faoliya-tiga innovatsion yondashuvlarni tat-biq etishi boshqalar uchun o'rnak bo'lishi lo-zimligi ta'kidlandi.

Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Olim Omonov eng namunal vazir o'rinbo-sari, Atom energiyasi agentligi direktori Azim Ahmadxo'jayev eng namunal agentlik direktori, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi Xalilillo To'raxo'jayev eng namunal qo'mita raisi sifatida e'tirof etildi.

Prezidentimiz kelgusi bosqichlarda dastur yanada ochiq bo'lishi va talab kuchiyi-shini qayd etdi. Bunday buyon yaxshi natija ko'rsatgan idoralar bilan birga samarador-lik va xizmat sifati bo'yicha ortda qola-yotgan tashkilotlar ham ochiq aytiladi. Bu davlat idoralari-ni o'z faoliyatiga xolis baho berish, kamchiliklarni bartaraf etish va aholi oldidagi mas'uliyatini oshirishga undaydi.

Jarayon izchil davom etib, qamrovli ken-gayishi uchun "Sifatli davlat boshqaruvi" dasturi har ikki yilda o'tkazib boriladi. Kelgusi bosqichdan unda mahalliy hokim-liklar ham ishtirok etadi. Ayni jihat is-lohotlar natijasi,

avvalo, quyi bo'g'inda, tuman va shaharlar darajasida jadallashishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari xalq ishonadigan, inson qadri-ni ulug'laydigan, odamlarning og'irini yengil qiladigan samarali davlat tizimini yaratish bundan keyin ham ustuvor vazifa bo'lib qolishini ta'kidladi. Vazirlik va idoralar faoliyatida "jarayon uchun" emas, "natija uchun" ishlash tamoyi-li asosiy mezonga aylanishi zarurligi qayd etildi.

Mamlakatimiz yetakchisi shu yerda "Kelajak uchun" iqtisodiy tashabbuslar forumi doirasida saralab olingan loyihalar taq-dimoti bilan ham tanishdi.

Hozir amaliyotimizda aholi fikri, tashabbus va takliflari inobatga olinadigan "Me-ning fikrim", "Ochiq budjet", "regulation.gov.uz", "muroj-aat.gov.uz" kabi portallar mavjud. Lekin ular aniq vazifalarga mo'ljallangan, aholi qo'llab-quvvatlanadigan turli yo'nalishlarga doir istiqbolli tashab bus hamda takliflarni saralash va amaliyotga joriy qilishga qat'ialan yirik muloqot maydonini yaratishga ehtiyoj bor edi.

Chunki tadbirkorlar yoki izlanuvchan yoshlarimizning ana shunday loyihala-ri ba'zida rivojlanmasligi yoki umuman hayotga tabiiy etilmay qolib ketish holatlari uchrab turardi. Bu esa, o'z navbatida, ay-rim istiqbolli tashabbuslar uchun alohida e'tibor, o'ziga xos sharoit yaratish zarurli-gidan dalolat etdi.

Shu bois, mamlakatimizda aholi, ayniqsa, yoshlar va tashabbuskor fuqarolarning ilg'or g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ularni amaliy loyihalarga aylantirish uchun ochiq va samarali mexanizmlar yaratishga e'tibor kuchaytirildi.

Shu maqsadda Prezidentimizning 2025-yil 14-iyuldagi "Islohotlarni amal-ga oshirishda istiqbolli tashabbuslarni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni-ga muvofiq, "Kelajak uchun" istiqbolli tashab buslar forumini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Uning asosiy maqsadi keng jamoatchilik tomonidan ilgari surilayotgan dolzarb takliflarni saralash, qo'llab-quvvatlash va hayotga tabiiy etishdan iborat.

Forum doirasida kelajakuchun.gov.uz kraudplatformasi ishga tushirildi. Bu orqali aholi o'z tashabbuslarini ochiq tarzda taqdim etishi, ulami muhokama qi-lish va ekspert baholashidan o'tkazish imko-niyati yaratildi.

Joriy yilgi forum uchun tashkiliy qo'mita tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash, ekologiya, suv ta'minoti va "yashil" energetika qamrovini kengaytirish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish, tibbi-yot va ta'lim sifati-ni oshirish, sud-huquq tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

Forum e'lon qilngach, aholidan 1300 dan ortiq taklif va tashabbus kelib tushdi. Dastlab ular Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi hamda "Biznesni rivojlantirish banki" tomonidan ko'rib chiqilib, belgilangan ustuvor yo'nalishlar kesimida umumlashtirildi.

Shundan so'ng tashabbuslar Mentorlar kengashi a'zolari va sohaviy ekspertlar ishtirokida tahlil qilinib, amaliy ahamiyati, joriy etish imkoniyati, ijtimoiy-iqtisodiy samarasi va kengaytirish istiqbollari nuqtayi nazaridan baholandi. Ushbu jarayon yakunlari bo'yicha eng dolzarb loyihalar "TOP-50" va "TOP-10" ro'yxatiga saralab olindi.

Forumning birinchi kunida "TOP-10" tashabbus mualliflarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. G'oliblarga sertifikatlar va pul mukofotlari topshirildi.

Davlatimiz rahbariga taqdim etilgan loyihalar orasida yo'l qurilishda plastik chiqindilardan foydalanish, innovation havo tozalash uskunasi-ni ishlab chiqish, chekka hududlarni ko'chma qurilma vositasida energiya bilan ta'minlash, piyodalar yo'lakhasida avtomatlashtirilgan oghlantirish tizimini joriy qilish, milliy muhandislik platform

FUTBOLDAN MILLIONLAB QALBLARGA KO'CHAYOTGAN MARDLIK, G'OLIBLIK SHIJOATI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari, murabbiylar shtabi, soha faxriylari va sport jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Poytaxtimizdagi "Bunyodkor" stadionida har qachongidan o'zgacha kayfiyat hukmron. Buning asosiy sababi futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasini AQSH, Meksika va Kanada-da bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga kuzatish marosimidir. Marosimni kuzatar ekanmiz, biz ushbu kun-larni qanchalik orziqib kutganimiz, milliy genofondimizga xos g'oliblik sururi futbol timsolida yangi O'zbekistonga, xalqimizga qayt-ganini anglay boshlaymiz. O'tgan vaqtda o'zbek futbolidagi o'zgarishlar, mundialgacha bo'lgan yo'l va bu yo'ldagi ayrim holatlar esga tusha boshlaydi.

Davlatimiz rahbari uchrashuv chog'ida bunga alohida to'xtalib, o'zbek futbol muxlislari bu kuni 34 yil kutganini, milliy terma jamoa a'zolari har bir o'yinga yuksak mas'uliyat, va-tanparvarlik ruhi va g'alabaga ishonch bilan maydonga tushib, mamlakatimiz futbol tarixida yangi sahifa ochganini qayd etdi. Buning uchun futbolchilar, ularni tarbiyalab, voyaga yetkazgan ota-onalari, ustoz va murabbiylariga minnat-dorlik bildirdi.

Futbolchilarimizni O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochgan zamonaviy qahramonlari deb aytish arziydi. Ular xalqimizga olam-olam quvonch bag'ishladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Ha, futbolni bugun millionlar sevadi, ardoqlaydi, qadrlaydi. Yana u mamlakatni dunyoga tanituvchi eng mashhur sport turlaridan. Futbol mana shu jihatlari bilan ajralib turadi. Shu bois, hozir dunyoda ushbu sport turiga katta e'tibor qaratilib, qo'llab-quvvatlanadi.

O'zbekiston xalqi ham futbolchilarimizning ushbu mundial yo'lidagi har bir ishtirokini katta ishtiyok va hayajon bilan kutadi, olqishladi. Yutuqlaridan xursand bo'ldi, mag'lubiyatiga achindi. Lekin umidini so'ndirmadi. O'z navbatida, futbolchilarimiz ham shahstini tushirmadi. Maqsad sari dadil intildi. Buning uchun davlat tomonidan shart-sharoit, qulay muhit yaratildi.

Qisqasi, jahon chempionatiga yo'llanma barchaning orzusi edi. Futbolchilarimiz bir necha marta marraga yaqin bordi. Lekin ayrim hollarda birgina gol farqi, ba'zan durang o'yin yoki boshqa holatlar, omadsizliklar tufayli bu orzu umidga aylanib qolaverdi.

Ochig'i, orzu ushulishiga nimadir yetishmasdi. Buning uchun muayyan bosqichlar bosib o'tildi. Ungacha jahon chempionatiga yo'l ochgan ayrim jihatlar, futbolchilarimizning boshqa musobaqalarda qo'lga kiritgan ba'zi yutuqlarini keltirib o'tsak, o'rinni bo'ladi, nazarinmizda.

Qaysi soha bo'lmasin, oldinga katta maqsad qo'yish yaxshi, albatta. Lekin buning uchun zarur tayyorgarlik, puxta poydevor kerak. Va shunday bo'ldi ham. Mamlakatimizda bolalar va o'smirlar futbolini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Viloyatlarda zamonaviy futbol akademiyalari tashkil etildi, bolalar uchun minglab maydonchalar qurildi. Bu kabi ishlarni kengaytirish va sportni omallashtirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Prezidentimizning 2019-yil 4-dekabrda-gi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futboli har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 20-martdagi "Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bu borada katta ahamiyat kasb etdi.

Huquqiy asoslar samara berdi, albatta. Huddudlarda zamonaviy sport inshootlari, stadionlar qurilib, ularga minglab yoshlar jalb qilindi. Ko'plab iqtidor egalari kashf etildi. Istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tan-lash hamda tayyorlashning samarali tizimi yara-tildi. Milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifati sport xarakterini saqlab, mahallalardan boshlab futbol infratuzilmasini rivojlantirish hamda futbol maktablari va futbol akademiyalariga iqtidorli futbolchilarni saralab olish (seleksiya) ni yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratildi. Millionlar

o'yiniga aholini, ayniqsa, yoshlarni keng jalb etishga kirishildi. Murabbiy va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash, mahoratin oshirish, infratuzilmani yaxshilash, o'rnatilgan standartlarga moslashtirish choralari ko'rildi.

So'nggi yillarda joylarda 200 dan ziyod yirik sport inshooti, 4000 ga yaqin xususiy sport klublari ish boshladi. 1500 dan ortiq mahallada sport maydonchalari qurildi. Poytaxtimiz-da zamonaviy Olimpiya shaharchasi barpo etildi. Yuqori Chirchiqda Milliy futbol markazi ishga tushirildi. Har bir viloyatda professi-onal futbol akademiyasi va futbol maktablari tashkil qilindi. Bular ana shu sa'y-harakatlar samarasidir. Yana bunday ishlar natijasida mamlakatimizda havaskor futbolchilar soni 5 millionga yetdi. Futbol bilan muntazam shug'ullanuvchilar 1 million 300 mingdan oshdi, professional futbolchilar esa 17 mingga yetdi. Futbolda yutuqlarimiz ko'paydi. Xususan, o'smirlar, yoshlar va Olimpiya terma jamoalari eng yuqori natijalarga erisha boshladi. Masa-lan, futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar (U17) terma jamoasi 2012 va 2025-yillarda Osiyo chempioni bo'ldi. Yoshlar (U20) terma jamoasi esa 2023-yili ilk bor Osiyo kubogini qo'lga kiritdi. Yigitlarimiz eng kuchli yoshlar jamoalari qatoridan joy oldi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari futbolni rivojlantirish, yoshlarni sportga jalb etish bundan keyin ham muhim vazifa bo'lib qolishini aytdi. Shu maqsadda "Har bir mahalla — futbol maydoni" dasturi boshlanishi belgilandi. Mazkur tashabbus umummilliy harakatga aylantirildi.

Dastur doirasida "Mahalla ligasi" tash-kil etilib, 12-17 yoshli o'g'il-qizlar o'rtasida mahalla futbol jamoalari tuziladi. Har yili havaskor futbolchilar ishtirokida "mahalla — tuman — viloyat —



respublika" bosqichlaridan iborat musobaqalar o'tkaziladi.

"Mahalla ligasi" eng yaxshi iqtidor egalarini saralashda professional klublar uchun muhim baza bo'lib xizmat qiladi. Har bir bolaga o'z mahallasida futbol bilan shug'ullanish, musobaqalarda ishtirok etish va iste'dodini namoyon qilish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, mamlakatimizda 2017-yildan barcha soha va tarmoqlar singari o'zbek futbolida ham yangi davr boshlandi. Futbolga alohida e'tibor kuchaydi. Muhit shakllandi. Xalqimiz sportga oshno bo'ldi. Ayniqsa, futbol ishqibozligi ortdi. Futbol O'zbekistonda eng sevimli sport turiga aylandi. Buni bilish uchun bugun huddudlardagi sport inshootlari, katta-kichik stadionlar, sport to'garaklari faoliyatiga nazar solishning o'zi kifoya. Zero, iqtidorlilar mana shunday kichik maydonlardan katta maydonlarga yo'l oladi.

Prezidentimizning qo'llab-quvvatlovi bilan mamlakatimizda sport, jumladan, futbol jadal rivojlanmoqda. Akademiyalar, zamonaviy sport inshootlari barpo etilmogda. Bu jarayonni xalqaro ekspertlar ham e'tirof etmogda. Bugun o'zbek futbol va futbolchilari tom ma'noda dunyo kezmogda. Ana shu sa'y-harakatlar samarasi



Prezidentimiz jahon chempionatida o'yin oson bo'lmagligini, milliy terma jamoa Portugaliya, Kolumbiya va Kongo kabi kuchli jamoalarga qarshi maydonga tushishini ta'kidladi.

o'laroq, terma jamoamiz safida muntazam mahorati yoshlar yetishib chiq boshladi. Ularni to'g'ri boshqaradigan murabbiylar bo'yicha ham salmoqli qarorlar qabul qilindi.

Nihoyat, natija ko'rinish boshladi. Shularning eng asosiyi — jamoamizni jahon chempionati sari yetaklagan uchrashuv o'tgan yil yozida bo'lib o'tdi. Vatandoshlarimiz, futbol muxlislari ushbu uchrashuvni intilqlik bilan kutgan edi. Na-tija ham shunga yarasha bo'ldi.

Xullas, 2025-yil, 5-iyun. Abu-Dabidagi "Al-Nahayon" stadioni. BAA — O'zbekiston o'rtasidagi hal qiluvchi o'yin. Bu o'yingoh o'zbek futbolchilari uchun ham, futbol muxlislari uchun ham yaxshi tanish. Ya'ni bu maydonda bizning fut-bolchilar ham klub, ham terma jamoa o'yinchisi sifatida o'yinlar o'tkazgan. Lekin shu sana biz uchun muhim va tarixiy bo'lib qoldi. O'sha kuni yigitlarimiz mezbon mamlakat terma jamoasiga qarshi 0:0 hisobidagi g'alabaga teng durang qayd etib, tarixda birinchi marta jahon chempionatiga yo'llanmani naqd qildi. Bu nafaqat futbol-chilar, balki butun O'zbekiston xalqining uzoq yillik orzusi ro'yobi edi. O'zbek futbol tarixiga zarhal xarlar bilan bitilgan muhim voqea edi.

Prezidentimiz jahon chempionatida o'yin oson bo'lmagligini, milliy terma jamoa Portugaliya, Kolumbiya va Kongo kabi kuchli jamoalarga qarshi maydonga tushishini ta'kidladi. Shu bilan birga, futbolchilarimiz allaqachon tarix yaratgani, endi ular muhim uchrashuvlarda ortiqcha bosimsiz, bor kuch-g'ayrati bilan Vatan sharaflini munosib himoya qilishi zarurligini qayd etdi. Mundial o'yinlarida fan klublar, minglab futbol muxlislari va Amerikadagi vatandoshlar-rimz stadionlarda jamoamizni qo'llab-quvvatlashini aytdi.

— El-yurtimiz sizlarga ishonadi, Prezident sizlarga ishonadi. Boringlar, mardonavor o'yaninglar, Vatan sharaflini munosib himoya qiling lar, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasini 2026-yilgi jahon chempionatiga kuzatish marosimida ishtirok etdi.

Marosim avvalida O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari maydonda saf tortdi.

Davlatimiz rahbari stadionda to'plangan yurdoshlarimiz, futbol muxlislari, milliy terma jamoa a'zolari, murabbiylar shtabi va sport jamoatchiligi vakillarini katta futbol bayrami bilan tabrikhladi.

Bugungi kun o'zbek futbol uchun yana bir tarixiy sana ekan, milliy terma jamoamiz AQSH, Meksika va Kanada maydonlarida o'tadigan jahon chempionatiga katta ishonch va ezuq tilaklar bilan kuzatlayotgani ta'kidlandi.

Nutq yakunida O'zbekiston Respublikasi-ning Davlat madhiyasi yangradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari bilan suratga tushdi.

Konsert dasturi namoyish etildi. Tadbir yakunida milliy terma jamoaning nazorat uchra-shuvi bo'lib o'tdi. Yurtimiz faxriga aylangan va futbol muxlislari e'tiborini qozongan futbolchilarimiz jahon chempionatiga yo'l olmogda. Ular bilan safaroldi uchrashuv haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Tribunal mamlakatimiz bayrog'i tusiga kirdi. Tomoshabinlar olqishi kuy-qo'shqlarga ulandi.

Futbolchilarimiz oldida yanada katta vazifa turibdi. Avvalo, musobaqada munosib ishtirok etib, imkon qadar yuqori natijalar qayd etishni, keyinchalik ham to'xtab qolmay, navbatdagi mundiallarning doimiy ishtirokchisiga aylanishini barchamiz istaymiz.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTON, FAQATGINA OLG'A BOR!

Millionlar o'yini shubhasiz futbol, Dengiz misol mavjlanadi muxlislar. Sendan talab qilingani faqat gol, Ehtiroslar oshar, toshadi hislar.

"Oq bo'rilar", zafar doim bo'lsin naqd, Seni g'olib ko'rish bizlar uchun baxt. Qadamingdan titrasin har o'yingoh, Maydonlarga mardona chiq hamma vaqt!

O'zbekiston, o'z bekliging rost bo'lsin, O'zbekiston, olam nomingga to'lsin, Dunyo bilsin, har zarbangda bolg'a bor. O'zbekiston, faqatgina olg'a bor!

Pressingda ushlagin raqiblaringni, Bir zum ham to'xtatma ta'qiblaringni. Barchasi qarshingda g'afatda qolsin, O'yindan tashqari holatda qolsin!

O'ttiz besh yil yozganlarim dod bo'ldi, Mundialga chiqding, dil obod bo'ldi, Bir zamonlar samolarga sochilgan — Qancha ajdodlarning ruhi shod bo'ldi.

O'zbekiston, o'z bekliging bor bo'lsin, O'zbekiston, omad senga yor bo'lsin! Tap tortmasdan faqatgina olg'a bor, Xudoyimning O'zi madadkor bo'lsin!

Har bir qora ko'z-qoshing uchun o'yna, O'yna, har bir yurtdoshing uchun o'yna, Isohoh-la futbolni o'zgartirgan — Oliy muxlis — Yurtboshing uchun o'yna!

O'zbekiston, o'z bekliging rost bo'lsin, Kuching ko'rsat, har zarbangda bolg'a bor. O'zbekiston, noming dunyoga to'lsin, O'zbekiston, O'zbekiston olg'a bor!

Jahon chempionati — ulug' bayram, to'y, To'yindan aylanay, ona Vatanim! G'arbda Sharqning quyoshiday ko'rsat bo'y, Bo'yindan aylanay, ona Vatanim!

Botir ERGASHEV,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir



Nuqtayi nazar

Bugun dunyo iqtisodiyotida davlat xaridlariga nafaqat tovar va xizmat sotib olish mexanizmi, balki iqtisodiy xavfsizlik, raqobat muhiti va davlat boshqaruvi samaradorligini belgilaydigan strategik tizim sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda davlat xaridlarini sun'iy intellekt, katta hajmli ma'lumotlarning tezkor tahlili va avtomatlashtirilgan monitoring mexanizmlariz tasavvur qilish qiyin.

DAVLAT XARIDLARIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIK

Yangi O'zbekistonda ham davlat xaridlari tizimini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar davom ettirilmoqda. Elektron tender, onlayn auktsion va elek-tron do'kon platformalari orqali byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, in-son omilini kamaytirish va korrupsiya xav-fini cheklash borasida muhim natijalar ku-zatilyapti. Biroq bugun eng dolzarb masala davlat xaridlarini oddiy elektron tizim-dan intellektual boshqaruv tizimiga aylantirish bo'lib qolayotir. Mutaxassislar fik-ri-cha, davlat xaridlaridagi asosiy muammo ko'p hollarda qaror qabul qilish jarayonida emas, balki ma'lumotlarni tahlil qilish va xavfni oldindan prognoz qilish mexanizmi yetarli emasligida namoyon bo'ladi.

Xo'sh, aslida ham shundaymi? Keling, buni tahlil qilib ko'ramiz. Masalan, ayrim holatlarda

bozor narxi sun'iy oshirish, texnik talablarni muayyan ishtirokchi man-faatiga moslashtirish yoki tender ishtirok-chilari o'rtasida yashirin kelishuvlar kuza-tilishi mumkin. Oddiy elektron platforma bu holatlarni qayd etishi mumkin, ammo ularni tahlil qilib, xavf darajasini ol-dindan aniqlash uchun intellektual yondashuv talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, davlat xaridlariga "Raqamli risk-indeks" tizimi-ni joriy etish muhim ilmiy va amaliy yan-gilik bo'lishi mumkin. Ushbu modelga ko'ra, har bir tender yoki xarid jarayoni avtomatik ravishda bir nechta mezon asosida baholana-di.

Jumladan, taklif etilgan narxning bo-zor qiymatiga nisbati, ishtirokchilar soni, g'olib tashkilotning avvalgi shartnomalari tarixi, texnik

talablardagi takroriy yoki shubhali holatlar, qisqa muddatda takror-langan xaridlarni sun'iy intellekt o'rga-nib chiqadi. Ya'ni SI ushbu ma'lumotlarni tahlil qilib, har bir xarid uchun "ishonch indeksi"ni shakllantirishi mumkin. Agar tizim yuqori xavfni aniqlasa, tender avto-matik ravishda qo'shimcha monitoring yoki au-ditga yo'naltiriladi. Bu esa korrupsiyaviy omillarning oldini olishda mutlaqo yangi bosqichni boshlab beradi.

Ayniqsa, elektr energetika tarmog'i-da bunday intellektual tahlil mexa-nizmlarini joriy etish muhim. Chunki mazkur sohada transformatorlar, yuqori kuchlanish li elektr uskunalari, kabel mahsulotlari va yirik infratuzilma obyektlari bo'yicha xaridlar katta moliya-viy resurs larni talab qiladi. Bunday ja-rayonlarda hatto kichik iqtisodiy

xatolik ham milliardlab mablag' yo'qotilishga sa-bab bo'lishi mumkin. Shu bois, sohada aql-li xaridlar ekotizimini shakllantirish vaqti keldi. Bu tizimda sun'iy intellekt bozor narxlarini real vaqt rejimida monitoring qiladi va elektron platfor-ma texnik talablarning shaffoligini tahlil qiladi. Shuningdek, u avtomatik algoritmlar orqali ishtirokchilar o'rtasi-dagi ehtimoliy manfaatlar to'qnashu-vini aniqlaydi va blokcheyn texnologiyasi orqali tender jarayonlarining o'z-garmas raqamli tarixi saqlanadi.

Eng muhimi, bunday yondashuv davlat xaridlarini faqat nazorat qilish vositasi emas, balki strategik boshqaruv mexanizmi-ga aylantiradi. Natijada byudjet mablag'la-ridan tejamkorlik bilan foydalanish, investitsiya samaradorligini

oshirish va tadbirkorlar uchun haqiqiy raqobat muhiti-ni shakllantirish imkoni kengayadi.

Iqtisodchilar ta'kidlaganidek, kela-jakda davlat xaridlarida g'olibni faqat eng arzon taklif emas, balki eng samarali raqamli reyting belgilashi mumkin. Ya'ni tizim mahsulot sifatini, energiya samara-dorligi, xizmat muvofiqi va kompaniyaning ishonch darajasini ham avtomatik hisoblay-di. Bu esa davlat mablag'larining qisqa mud-datli emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy samarasini ta'minlaydi.

Yangi O'zbekistonda davlat xarid-lari tizimi yangi texnologik bosqichga kirmogda. Endi asosiy vazifa elektron shaklga o'tish emas, balki intellektual va prognozlashtiruvchi raqamli tizimni shakllantirishdir. Sun'iy intellekt, kat-ta ma'lumotlar bazasi va avtomatlashti-rilgan risk-tahlil texnologiyalari dav-lat xaridlarini nafaqat shaffof, balki ilmiy asoslangan, tezkor va strategik boshqaruv mexanizmi-ga aylantirishi mum-kin. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti barqa-rorligi, energetika xavfsizligi va davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Nigora ABDULLAYEVA,
"O'znergositish" AJ boshqarma boshlig'i o'rinsosari



Mustaqil hayot ostonasida

"BIZNI VATAN KUTYAPTI!"

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mana, yana bir o'quv yili nihoyalab, so'nggi qo'ng'iroq chalinadigan palla ham yetib kelyapti. 500 mingga yaqin 11-sinf bitiruvchisi mustaqil hayot ostonasida, orzu va maqsadlari sari qadam tashlashga shay bo'lsa, 600 mingdan ziyod 9-sinf bitiruvchisi maktabda, akademik litsey yoxud texnikumda o'qishni davom ettiradi.

So'nggi qo'ng'iroq sadosi bitiruvchilarni yangi hayot sari chorlaydi. Endi ular oldida katta yo'l, ulkan orzular va yuksak mas'uliyat turibdi. Kimdir shifokor, kimdir muhandis, yana kimdir o'qituvchi bo'lishni istaydi. Umid ila boqib turgan ota-onalar ularga kuch beradi. Farzandining eng yaxshi kasb egasi bo'lishi, jamiyatda o'z o'rini topishni kim xohlamaydi axir? Hamma ham eng iqtidorli o'quvchining ota-onasi bo'lishni orzu qiladi. Shuning uchun ham "So'nggi qo'ng'iroq" tabdirlarida namunal xulqi va a'lo bahosi bilan o'mak bo'lgan iqtidorli o'quvchilar barobarida ota-onalarga ham tashakkurnomalar topshiri-ladi. Bitiruvchilar qalbida esa kuchli hayajon, turli xayollar charx uradi. Garchi maktabni mu-vaffaqiyat bilan tamomlayotgan bo'lsa-da, faol, yetakchi yoshlar ham o'ziga xos hayajonda.



Bitiruvchi — 2026



RAG'BAT YUKSAK MARRALAR SARI CHORLAYDI

MUDDATIDAN OLDIN TALABA BO'LGANLAR

Bir olam orzular bilan qanot qoqishga shaylangan yoshlarga havas qilmay ilojingiz yo'q. Imkon bo'lsa, bir intilishda yulduzni zabt etish shijoati bor ularda. Biri poytaxtdagi universitet sari otlamayotganini aytsa, yana biri xorijdagi qaysidir nufuzli OTMga talabalikni naqd qilib qo'ygani bilan g'ururlanadi. Keng imkoniyatlarga ega yurtning yoshlari boshqacha bo'lishi ham mumkin emas.

Ilgari bir maktabni o'rta 50-60 o'quvchi bitirgan bo'lsa, shundan sanoqliki tala-ba bo'lgan. Bugungi manzara butunlay boshqacha. Ba'zi maktab bitiruvchilari muddatidan oldin talaba bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritmoqda. Xususan, Kitob tumanidagi 50-maktabning 11-sinf o'quvchilari allaqachon talabalik uchun yetarli ball to'plashga ulgurdi.

mulohazalar bildirildi. O'sha muloqotda ta'limga cheksiz imkoniyatlar yaratilayotganini chuqur his qildim. Pre-zidentimiz ko'ksimga "Shuhrat" medalini taqayotgan lahzalardagi hayajonimni, xur-sandilgimni esa so'z bilan ifodalay olmayman, — deydi pedagog. — O'qigan, eshitganlarim asosida emas, bevosita shu kasbda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi sifatida hozir

MAKTABDAN KATTA YUTUQ BILAN KETYAPMAN

Zulhayo MINGBOYEVA,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibi:

— Shu kunlarda maktabga kelar ekanman, hammasi har doimgidek tuyu-ladi. O'sha tanish yo'laklar, sinfxona, qo'ng'iroq ovozi... Biroq qalbmida qandaydir boshqacha his bor. Chunki men maktab bilan xayrlashayotgan bitiruvchiman. Ammo maktabdan katta bir yutuq bilan ketyapman. Qo'lmda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti, qalbmida esa cheksiz hayajon va min-natdorlik tuyg'usi. Bu mukofot men uchun shunchaki diplom yoki yutuq emas. Maktabimiz o'quvchilari o'rta-sindagi ilk davlat mukofoti ekan bilan ham ahamiyatli. Kelgusida safimiz ken-gayishiga ishonaman. Davlatimiz biz, yoshlarning ilm egallab, yuqori marralarni zabt etishimiz uchun zarur sharoitlarni yaratib beryapti. Shuning uchun ham katta avlod vakillarining aksariyati o'rta-sindagi mukofot sohibi bo'lib qolishni istaydi. Ular bugungi maktablarga, hozirgi mukofot va rag'batlarga juda havas qilishadi.



Bugungi o'qituvchilar ham zamon talablariga mos tarzda o'z ustida ishlayapti. Ustoz-larim bilim beribgina qolmay, o'zimga ishonch ham uyg'otdi. Har bir muvaffaqiyatimda ularning hissiyasi bor. Ular orqali maktab menga so'zni, she'rni sevdirdi oldi. Kelgusi-da adabiyot vakili bo'lishni istayman va buning uchun tinimsiz harakat qilaman. Zero, qizlar ham katta maqsadlarga erisha olishini, jamiyatda o'z o'rni-ga ega bo'lishni istayman.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibi degan munosib bo'lish uchun bu ko'proq izlanishim, bilim olishim va jamiyatga foydam tegadigan inson bo'lishim kerak. Chunki haqiqiy yutuq faqat mukofot olish emas, balki xalq ishonchiga munosib yashashdir. Agar insonda maqsad, mehnat va ishonch bo'lsa, albatta, o'z yo'lini topadi. Bugun qalbmida faqat bitta tilak bor: menga bildirilgan ishonchni oqlash va Vatanim taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan inson bo'lish.

MUVAFFAQIYAT — KUCHLI MUHIT MEVASI

Akbar DOSTONOV,
Sariosiyo tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 11-sinf bitiruvchisi:

— Rostini aytaman, hozir qalbmida ikki xil tuyg'u kurashyapti. Bir tarafdan quvonaman — ol-dimda yangi hayot, yangi orzular, katta maqsadlar turibdi. Ustozlarim yordamida tinimsiz o'qib izlanish natijasida AQSH, Shveysariya, Italiya va Kanada kabi davlatlarning 32 ta oliygohiga 2 million 165 ming dollarlik grant yutib ol-dim. Ixtisoslashtirilgan maktablardagi zamo-naviy sharoitlar sababli ko'plab yoshlar men kabi yutuqlarga erishib kelyapti. Yoshlarning xalqaro maydondagi bunday muvaffaqiyati yangi O'zbeki-ston ta'lim tizimida yaratilayotgan imkoniyatlar-ning yorqin natijasidir. Ikkinchi tarafdan esa maktab bilan xayr-lashish ham og'ir. Chunki bu yer men uchun shunchaki ta'lim maskani emas, balki hayotimning eng go'zal onlari o'tgan tabarruk joy.



Muhimi, ustozlarimdan minnatdorman. Ular bizga faqat kitobdagi bilimlarni emas, hayotni ham o'rgatdi. Qiyin paytlarda dalda berdi, ishonchi, tarbiya qildi. Balki ba'zan ularning mehnat-tini to'liq qadrlamagandiriz, ammo ustozning mehnati beqiyos ekanini men kabi yutuqqa erishgan har bir o'quvchi chuqur anglab yetadi.

Bugun kelajakdan cho'chimayman. Chunki maktab menga ilm olish mashaqqatlariga ko'nikma, kuchli bilim bilan birga ishonch va keng tanlov imkonini ham berdi. Nafaqat maqsadlarim sari intildim, balki mamlakatning eng iqtidorli yoshlari jamlangan, raqobatbardosh akademik muhitda chiniqdim. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatimizdagi 52 bitiruvchining har biri haqiqiy yetakchidir. 12 tengdoshim eng yuqori — 189 ballik natijani qayd etgan. 15 nafari 170 dan yuqori ballga ega. Qolgan barcha o'quvchilarning esa kamida 1 tadan xalqaro yoki milliy sertifikat bor. Mana shunday kuchli ilm maydonida o'qish va ulam orasida yetakchilardan biri bo'lish men uchun ham faxr, ham ulkan rag'batdir.

O'zim orzu qilgan kasb egasi bo'lib, ta'lim bergan ustozlarim va xalqimizning ishonchi-ni oqlash uchun bor bilimimni sarflayman. O'zim kabi mustaqil hayot ostonasida turgan barcha yoshlarga bilim olishda davom etishni, o'z kasbining ustasi bo'lish uchun harakattan do'xtamaslik-larini tilab qolaman. Zero, bizni vatan kutyapti.

TA'LIMDAGI XALQCHIL ISLOHOTLAR yoshlar dunyoqarashini o'zgartirmoqda

Mamlakatdagi yangilanishlar shiddati qancha kuchli bo'lsa, jamiyatga shuncha tez va ommaviy ta'sir qiladi. Yangi O'zbekistonda ilm-fanga katta e'tibor berilmoqda. Islohotlar ko'lamdorligi va xalqchilligi bois, yoshlar orasida o'qib-o'rganishga rag'bat tobora kuchayib, katta yutuqlarimiz ko'payib bormoqda.

Yaqinda Navoiy shahridagi 4-maktabning 2-sinf o'quvchisi Muhammadali Yusupov ingliz tilidan B2 darajasidagi sertifikatni qo'lga kiritdi. E'tiborlisi, Muhammadali bo' natijaga ilk urinishdayoq erishdi. Qahra-monimizning otasi Alisher Ro'ziyev Navoiy kon-metallurgiya kombinatida dasturchi, onasi Shohsanam Hasanova esa uy bekasi.

— O'g'limning xorijiy tillarni o'rga-nishini istagan edim, — deydi Shohsanam Hasanova. — U 3 yoshidan boshlab rus tili-ni, 5 yoshida ingliz tilini o'rgana boshladi. Farzandlarimiz bo'sh vaqtda sport bilan shug'ullanadi, til o'rganadi. Qolaversa, dars-lariga ham jiddiy qaraymiz. Hozir 6 yoshli qizim ham rus tilida o'qib, yozishni biladi. Unga akasi yordam beradi. O'qish uchun bolaning o'zida xohish va harakat bo'lishi lozim.

Albatta, ta'lim farzand tarbiyasi va ka-molotida muhim paydevor. U qanchalik mustahkam bo'lsa, natijalar ham yuksak bo'ladi. Navoiy shahridagi 4-maktab umumta'lim fanlarini o'qitish, turli to'garaklarni yuritish, chet tillarni o'rgatish bo'yicha o'quv-chilarni yuksak yutuqlar sari yetaklamoqda. Maktabning 2-sinf o'quvchisi Muhammadali Yusupov ham shu e'tibor, ta'lim sifatini oshirish yo'lida bajarilayotgan ishlar natijasida rekord natijani qayd etdi.

— Maktabimizda 2700 dan ziyod o'quvchi bor, — deydi Navoiy shahridagi 4-maktab direktori o'rinbosari Nigora Abdiyeva. — Hozir bitiruvchilarimizning 95 foizi milliy sertifikatga ega. Bundan tashqari, 2 o'quvchimiz CEFR, IELTS xalqaro sertifi-katlarini olib, 1400 dan ziyod



ball to'pladi. O'quvchilarni fan olimpiadalarida ham yuqori natijalarga erishmoqda. Shuningdek, yangil atletika, sambo va karate bo'yicha to'garaklarga qatnab, turli musobaqalarda yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Muhammadali Yusupovning muvaffaqiyati butun maktab jamoasini quvontirdi. Uning yuksak nati-jasi tengdoshlari va boshqa sinf o'quvchilari-ni ruhlantirdi.

Maktabning o'quv binolari tubdan yangi-lanib, zamonaviy jihozlar bilan ta'min-langan. Muhimi, maktabda "Sifati ta'lim — kelajak paydevori" shiori ostida tizim-li ishlar yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, mak-tabga xorijlik o'qituvchilari ham jalb etilgan.

— Filippidan kelib, ushbu maktabda 6-yildan buyon ingliz tilidan dars beryapman, — deydi xorijlik o'qituvchi Pon-gos Gerogelam. — Doim o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab, yo'l-yo'riq ko'rsatishim kerak. Shunda ular hayotda o'z o'rini topish, xalqaro maydonda raqobatlashishga qiynal-maydi. O'rganish muhabbatdan boshlanadi. Agar o'quvchilarni ingliz tilini yaxshi ko'r-sa, o'rganishga tabiiy ravishda intiladi. Shu bois, ularning chet tilini o'rganishga ishtiyoqi va shijoatini qadrlayman. Yozda o'quvchilar uchun ingliz tilini o'rgatadigan oromgoh ochish niyatidaman. Bu o'quvchilar uchun yangi imkoniyat bo'ladi.



Maktabda o'qituvchilar bilan ingliz tilida erkin muloqot qiladigan 7-8 yashar o'quvchilar safi kengayib boryapti. Ta'lim dargohi jamoasi va ota-onalarning doimiy muloqoti ham yutuqlarga zamin yaratmoqda. Masalan, Muhammadalining ingliz tili o'qituvchisi Shahzod Bobonazarov shogir-dining iste'dodini payqashidan uning ota-onasi bilan subhbatlashdi. Zarur ko'mak berib, qo'shimcha mashg'ulotlar o'tdi.

— Ota-onalar farzandining qobiliyatini anglab, uni to'g'ri yo'naltirsa, bundan ham zo'natijalarga erishish mumkin, — deydi Shahzod Bobonazarov. — Ba'zan kichik sinfdagi o'quvchilar o'zidagi qobiliyatini ko'rsata olmaydi. Bunda ota-onalar va o'qituvchilarning

qo'llab-quvvatlovi juda muhim. Besh yildan beri ingliz tilidan dars beraman. Muhammadalining natijasi faoliyatimdagi eng yaxshi ko'rsatkich bo'ldi. Sakkiz yoshida shunday sertifikatni qo'lga kiritishi mamlakatimizda e'tirof etildi. Hozir 100 ga yaqin o'quvchi qo'shimcha mashg'ulotlarida qatnashyapti. O't-gan yili 80 foiz o'quvchimiz yuqori natijalarga erishdi. Shogirdlarimiz Italiya va Malayziya da bo'lib o'tgan xalqaro olimpiadalar-da yuqori o'rinni egalladi.

Navoiylik o'quvchilarning natijasi tez-tez e'tirof etilmoqda. Yaqinda Qiziltepa tumanidagi "Parvoz" xususiy maktabining 8-sinf o'quvchisi Dilbar Abdusamadova xalqaro SAT imtihonidan 1430 ball to'pladi. Ingliz tilidan B2 darajali sertifikat olib, muddatidan oldin talaba bo'ldi. Shu maktabning 11-sinf o'quvchisi Suhrobbek Sobirov xalqaro SAT imtihonidan 1390 ball, 10-sinf o'quvchilari Valijon Obidov va Behzod Farhodov xalqaro SAT imtihonidan mos ravishda 1340 va 1260 ball olib, muddatidan oldin talabalikka erishdi.

O'tgan yili oliy ta'lim muassasalariga kirish o'rtacha bali bo'yicha Zarafshon shahri mamlakatimizda 1-o'rinni egallagan bo'lsa, Qiziltepa tumani viloyatda 1-o'rinni qayd etdi. Shu bilan birga, viloyatda 10 ta maktabning 100 foiz bitiruvchisi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi. Bitiruvchilarning 309 nafari xorijiy grantlarni qo'lga kiritib, nufuzli 1000 talikdagi OTMlarga qabul qilindi. Yana 105 bitiruvchi yetakchi 100 talikdagi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'qish imkoniga ega bo'ldi. Bularning barchasi ta'limdagi islohotlar shiddat bilan keng qamrovda da-vom etayotganini ko'rsatadi.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

— Biz bir sinfni 56 o'quvchi tamomla-ganmiz. Sinfdoshlarimizdan men va yana bir do'stim oliy o'quv yurtiga o'qishga kirganmiz. O'shanda bu xabar qishloqda shov-shuv bo'lgani, o'ta-onamiz, qarindosh-urug'larnim faxrlangani hamon yodimdami. U paytda Mir-zo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi bo'lish mas'uliyati-ni uncha his qilmaganman. O'qishni bitirib

ishga kirgandan keyin, shunda ham uzoq yillar davomida bu kasb o'ziga yarasha mashaqqatli va sharaflil ekanini anglab yetganman, — deya xotirlaydi Parvoz Elmirezayev.

O'qituvchi bilim, ma'rifat ulashuvchi, insonlarni ezigulik va bunyodkorlikka chorlovchi mayoq kabidir. Bilganlarini yosh av-lodga o'rgatishdan uning ko'ngli osmon kabi yuksaladi. 50-maktabning matematika fani o'qituvchisi Parvoz Elmirezayev ham ana shun-day saodatmand, fidoyi pedagoglardir.

— O'qituvchi sifatli ta'lim-tarbiya berishdan boshqa o'y-tashvishlarini mak-tabga yetaklab kelmasligi kerak, — deydi u. — O'quvchilarni bilan doim samimiy gaplashishga harakat qilaman. To'g'ri, bir oz qattiqqo'lligim bor. O'quvchining yaxshi natijaga erishishi intilishi bilan birga oildan olgan tarbiyasiga ham bog'liq. Buni tajribamda ko'riyapman. Agar bola tarbiyalan bo'lmasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Shu bois, ta'lim va tarbiyani bir-biridan aslo ajratib bo'lmaydi. 9-sinfni tamomlagach, o'quvchilarni saralaymiz. Kasb-hunarga qiziquvchilarni o'rta maxsus ta'lim muassa-salariga yo'llaymiz. Oliy ta'limda o'qish-ni davom ettirish niyatidagilarni olib qolamiz. Shu bois, o'quvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichi yuqori.

Tog' etagidagi joylashgan Ravot qishlog'ida 25 yildan beri bolalarga saboq berib kelayotgan Parvoz Elmirezayev o'tgan yili Prezidentimizning tegishli farmoniga ko'ra, "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan-di. Bu yuksak rag'bat uni yanada yangi zafar-larga undadi.

— Davlatimiz rahbari o'tgan yili o'qituvchi va murabbiylar bilan o'tkazgan uchrashuvda ishtirok etgandim. Unda ta'limdagi yutuqlar bilan birga kamchiliklar xususida ham so'z yuritildi. Yillar davomida o'qituvchi o'z sohasidan ko'ra boshqa ishlarga jalb etilgan, qaddi va qadri tushib ketgani ta'kidlab o'tildi. Endi bu borada yangi islohotlarga yuz burishimiz shart ekanini ay-tildi, fikr-

mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish borasida xalqaro andozalarga mos islohotlar yo'lga qo'yilganini baralla aytay olaman. Ko'p yildan beri shu maktabda matematikadan dars berib kelaman. Dastlabki yillari bitiruvchi sinf o'quvchilarning kamdan-kami pedagogika yo'nalishini talandlari. Misol uchun, 2015-yilgacha tayyor-lagan shogirdlarimdan bor-yo'g'i 3 nafari o'qituvchi bo'ldi. Endi bugungi kun bilan qiyoslasam, o'tgan yilning o'zida 13 bitiruv-chimiz pedagogika yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirdi.

Parvoz Elmirezayev ham ta'lim sohasi-dagi imkoniyatlardan unumli foydalanib kelayotir. 25 yillik faoliyati davomida u tayyorlagan o'quvchilar bugun mamlakat-mizdagi nufuzli oliyoghlarni tamomlab, jamiyatning turli jabhalarida faoliyat yuritmoqda. Bugun fidoyi muallimning sa'y-harakatlari natijasida qishloqda oliy ma'lumotlilar safi kengayib boryapti.

— Keyingi to'rt-besh yilda maktab dars-liklari tubdan isloh qilindi, — deydi 50-maktab direktori Orif Pardayev. — Va-riativ va tanlov sinflari tashkil etildi. Ya'ni maktab o'quvchilari o'zi xohlagan yo'nalishga qarab fanlarni tanlash imkoniga ega bo'ldi. Masalan, iqtisodiyot yo'nalishini tanlagan o'quvchiga matematika va ingliz tili fanlari chuqurlashtirilgan holda o'qitiladi. So'nggi yillarda oliy o'quv yurtida o'qishni istayotgan bitiruvchilarimizning aksariyati talaba bo'lyapti. Joriy o'quv yili-da ham 15 o'quvchimiz maktabni bitiriyapti. Ulardan ko'nglimiz to'q. Sababi allaqachon shogirdlarimiz oliy o'quv yurtiga kirish bo'yicha 100 foizlik natijani qayd etgan.

— 10-sinfdan boshlab matematika fani-dan chuqurlashtirilgan shaklda bilim beril-gan, — deydi maktab bitiruvchisi Ulug'bek Ro'ziyev. — Joriy yil marta esa matema-tikani bilish darajam to'g'risida sertifi-katga ega bo'ldim. Avvalroq boshqa ikkita fandan ham shunday sertifikat olgandim. Jami 189 ball to'pladim. Bu natijaga eri-shishimda, tabiiyki, ustozlarimning hissa-si katta. Hozir iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha universitetda o'qish istagidaman. Qolgan sinfdoshlarimning natijalari ham yuqori. Ayrimlari bilan bir o'liyog'da o'qishni da-vom ettirishni rejalashtirganmiz.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

2026-yil 23-may, 104-son



Kamolot pillapoyasi



"SO'Z" QADRI Raqamli dunyoda tuyg'ular jangi



Dadaxon MUHAMMADIYEV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugungi shiddatli zamoni kuzata turib, ba'zan vaqtning qanday uchib o'tayotganiga hayron bo'lasan. "Avvalgilar ham bir sutkada 24 soat yashaganmikan yo ularda vaqt ko'proq bo'lganmi?" deb o'ylab qolasan. Virtual olam, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt qurshovida yashaymiz. Axborot oqimi shu qadar tezki, yengil-yelpi ko'ngilchalar narsalar ongimizni egallab olmoqchidek go'yo.

Biroq ana shu texnika-texnologiya asri-da ham odamdor baribir yurakni titrata-digan, ruhga ozuqa beradigan asl san'atga, so'zga ehtiyoj sezar ekan. Men negadir ming yildan keyin ham shunday bo'lishiga isho-naman — sun'iy intellekt qanchalik ri-vojlannasmi, odamning tafini baribir faqat odam oladi.

Hozirgi avlod kitob o'qimaydi, she'r eshitmaydi, adabiyot xalqdan uzqolashib ketdi degan yangilish fikr paydo bo'ldi. Ha, yangilish fikr! Go'yo zanjirlangan eshikning qulfini ocholmay halak bo'lgan, aslida, eshik qullannagan va unga shunchaki bir tegib ko'rish kerakligini bilmagan odamga o'xshaymiz. So'nggi yillarda sodir bo'layotgan adabiy hodisalar, ayniqsa, bir tashabbus bu eshikni siltab ochdi. Bu — Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi tomonidan yo'lga qo'yilgan, bugun katta ma'naviy harakatga aylangan "So'z" loyihasidir.

"So'z"ning ilk nafasidan boshlab uning yuragi qanday urgani tirik jarayon-dek ko'z oldimizdan o'tdi. Yozayotganlarim bu — loyiha ham raqamli videokon-tent shaklidagi variantini, ham keyin-chalik katta sahnalarga ko'chgan jonli kon-sert dasturlarini jarayonning ichida turib kuzatganlarimdir.

Loyiha bugungidek yirik konsert zal-larida namoyish etilishidan avval internet maydonida samimiy videolavhalar ko'rini-shida boshlangan edi. Loyiha ijodkorlari bugungi yoshlar tushunadigan "til"da — ijtimoiy tarmoqlar formatida ish boshla-di. Sifatlil vizual yechim, yuqori did va mu-siqa uyg'unligida she'riy videomahsulotlar suratga olina boshladi.

Bu jarayon mazkur loyihada ishtirok etgan barcha ijodkor uchun qadrlil. She'rda-gi dard va iztirobni vizual san'at orqali odamlarga yetkazish qanchalik go'zal natija berishini o'shanda ko'pchilik o'z tanasida, o'z tajribasida ko'rdi. Did bilan ishlangan bu qisqa videolavhalar ijtimoiy tarmoqlarda zanjirdek ulanib, minglab yuraklarga yetib bordi. Bu harakat qaysidir ko'ngillarda pinhon yotgan, joyi kelsa, faqat shivir-lab aytiladigan sof o'zbekcha so'zlarim, samimiy she'riyatning ovozi ni baland ko'tardi. Xalqning so'zga chanoqqoligi raqam-li dunyoda ham yaqqol namoyon bo'ldi.



"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Qabulxonaxona: (71) 233-56-33 Devonxonaxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05

xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" asari atrofida qurildi.

Ikkinchi she'riy konsert mahorati rejissyor Sayfiddin Meliyev tomonidan sahnalashtirildi. Zalda bo'sh joy qolma-gan, qancha tomoshabin tik oyoqda turib, she'r eshitardi. Sahnaning ortida turib, o'zimiz-ning ham tomosha qilgimiz kelgani rost. El-ning katta shoirlari Yo'ldosh Eshbek, Nodi-raq Afoqova, Zebo Mirzo, Nargiza Odinayeva bilan bir dasturda she'r o'qiyotganimizdan g'ururlanib o'tirdik.

"Binafsha", "Ko'ngil" kabi qo'shiqlar, mahoratlil sozandalarning har bitta she'rga, har bitta chiqishga jo'r bo'lishi zalda o'ziga xos unutilmas kayfiyat yaratdi. Sahnada ja-did bobolarimizning siymolari, ustozla-rimiz o'g'itlari va bugungi avlodning dadil so'zlari uyg'unlashib ketdi. Eng qizig'i, kon-sert yakunlangani, dastur tugagani aytilma-guncha hech kim joyidan qo'zg'almasdi, odamlar zalni tark etgisi kelmay, ijodkorlarni tik turib uzoq o'qishladi...

"Yaldo kechasi"

Loyihaning uchinchi yirik dasturi mam-lakatimiz adabiy hayotida katta voqega aylangan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xay-riddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani atrofida qurildi. Mazkur tadbir faqat ki-tob taqdimoti emas, balki millat xotirasi, yo'qotilgan jadid avlodi fojiasi va biz-ning ular oldidagi qarzimizdan so'zlovchi adabiy-ma'rifiy kechaga aylandi.

Taqdimoti kuzata turib, asarning mahoratlil rejissyor qo'lga tushishi qan-day noyob hodisa ekaniga yana bir bor amin bo'ldim. Senariy mualliflari romanning umumiy ruhiyatidan kelib chiqib, Najmid-din Turon, Madina Norchayeva, Shahriyor Shavkat, Nozima Habibullayeva va Rashid Xo'jamov kabi ijodkorlarning she'rlarini asar voqealari bilan shunday puxta va uyg'un holda bog'laganki, natijada yaxlit badiiy tizim, kompozitsiya yuzaga kelgan.

Sahnadagi har bir detal — shamdonlar, zanjirlarga o'ralgan kundalar, qizil mato ustidagi sovuq oybolta, davr liboslari va ekrandagi tarixiy lavhalar asar g'oyasini ochishga xizmat qildi. Ayniqsa, sahna chetida osilgan besh rangli



harakatlarning ommalashishi qiyin kechadi. "So'z" loyihasi o'sha birinchi katta qadamini dadil va muvaf-faqiyatli tashladi. Ilk she'riy konsertdayoq yoshlar orasida mashhur, umidli va o'z ovozi-ga ega shoirlar loyihaga jalb etildi. Shundan so'ng loyiha mantiqiy izchil-likda davom etdi: ikkinchi konsert buyuk metafakkir bobolarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ham Bobur tavallud ayyomlariga bag'ishlangan bo'lsa, uchinchi konsert O'zbekiston

matoning goh Turkiston muxtoriyati davrini, goh sho'rolarning og'ir yillarini va nihoyat, mustaqil O'zbekiston bayrog'ini aks ettirib, rangini o'zgartirib turishi tomoshabinda kuchli ruhiy taassurot uyg'otdi. Sahnadagi aka-ukaning firqaviy bahslari, qo'rboshilar va jadidlarning sub-bati, teatr aktyorlari ijrosidagi Yodgorbek, OzdobeK, Odlilbek va Oynisa qo'rboshi ziy-molari bizni o'sha davr fojialari bilan yuzma-yuz keltirdi.

She'r va dramatik chiqishlarga hamnafas tarzda ijro etilgan "Qarg'alar uchsa, qaray-lik" qo'shig'ining yurakni larzaga soluvchi yangicha talqini hamda Abdulla Qodiriy satrlari bilan aytilgan "Yig'lar" qo'shig'i kechaga o'z-gacha badiiy ruh bag'ishladi. Kon-sert davomida zal shu qadar sukunatga cho'm-diki, xuddi jami tomoshabinlar so'z sehriga sho'ng'ib ketgandek edi. Telefonga, gadjet-larga bog'lanib qolgan bugungi avlodning qalbiga to'g'ri yondashuv orqali asl adabiyot bilan kirib borish mumkinligining yaqqol isboti ham shu bo'ldi aslida.

"So'z" loyihasi bir necha fidoyilar-ning tashabbusi sifatida boshlanib, qisqa muddatda muhim ma'naviy dasturga aylandi. Yangida Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazida o'tkazilgan "So'z" loyihasi ijodkorlari bilan uchrashuvda loyihani sifat jihatdan yanada yaxshilash, mavzular ko'lami-ni kengaytirish haqida takliflar, muno-sabatlar, bahslar bo'ldi. Loyiha endi yangi bosqichga ko'tariladi. Ushbu adabiy harakat faqat poytaxt zal-larida cheklanib qolmaydi.



Haftalik



ISHONCHLI AXBOROT VA KREATIV YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan media haftalik davomida qarashlar va imkoniyatlar bir maqsad yo'lida birlashdi. Bular jurnalist imiji, milliy kontent, piar, xayp, trend, tahdid va obuna kabi masalalardir.



Prezident Administratsiyasi huzuri-dagi OAV uchun kontent tayyorlash markazi, Yoshlar ishlari agentligi va Farg'ona viloyati-hokimligi hamkorligida tashkil etil-gan mazkur haftalikda viloyatdagi bosma ommaviy axborot vositalari xodimlari, telejurnalistlar, operatorlar, axborot xizmati vakillari, blogerlar hamda soha-ga qiziquvchi yoshlar ishtirok etdi. Haf-talik malakali ekspertlar tomonidan olib borilgan, zamonaviy media olamining dolzarb yo'nalishlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari, bugungi jurnalist tikaga qo'yilayotgan talablar hamda tajriba va mahorat uy'g'unligiga asoslangan amaliy mashg'ulotlarga boy bo'ldi.

takliflar o'z-gargan. Xo'sh, bunday vaziyatda nima qilish kerak? Haftalik doirasida mavjud muammolarga yechim topishda qanday omillarga amal qilish lozimligi, inter-net va bosma nashrlardagi maqolalarning farqi, ularni auditoriyaga yetkazib berish uslublari hamda kadrlar malakasi xusu-sida o'zaro fikr-mulohazalar almashdik. Bosma nashrlarni yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha muhim jihatlardan xabardor bo'ldik.

Media haftalik-da viloyatimizdagi OAVlarning 600 nafarga yaqin xodimi, matbuot xizmati vakillari, blogerlar va yosh ijodkorlar faol ishtirok etdi, — deydi Farg'ona viloyati hokimligi matbuot xizmati rahbari Ma'sudjon Sulaymonov. — Shiddat bilan o'zgarib, yangilanib borayotgan bugungi zamonda jurnalistning so'zi va o'rni har qachongidan ham muhim. Milliy matbuotimiz ma'zmun-mundarijasini belgilashda qalam ahlining tiyarak nigohi, keng dunyoqarashi va zamonaviy bilimi hal qiluvchi ahamiyat-ga ega. O'tkazilgan haftalik davomida sohaning ana shu jihatlarni rivojlantirish, xolis va tezkor axborot tayyorlash hamda uni yetkazib berishda zamonaviy texnika va texnologiyalardan to'g'ri va maqsadli foydalanishning muhimligi e'tiborga olindi. Bu yo'nalishlarda respublika darajasidagi taj ribali jurnalist va mutaxassislar ishtirokida mashg'ulotlar o'tkazildi.



Bu yerda o'rgangan bilim va ko'nikmalarimiz kelgusidagi ish faoliyatimiz samaradorligini oshirishga, ilg'or tajribalarni amaliyotda keng qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Mazkur kunda har bir yangilikni axbo-rot maydoniga yetkazishda eng ilg'or texnologiyalardan unumli foydalanishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Mazkur jihatlar inobatga olingan holda ishtirokchilar auditoriya bilan ishlash ko'nikmasi, gazeta dizayni va marketing, zamonaviy jurnalistikaning yangi an'analari, tahririylarning axborot bilan ishlash mahorati, mediaimij yaratish, tezkor va ta'sirchan kontent tayyorlash bo'yicha ham zarur amaliy bilimlarga ega bo'ldi.

— Samimiy va ochiq muloqotlarga boy mashg'ulotlar sohadagi yutuq va kamchiliklardan to'g'ri xulosa chiqarish, mahorat hamda tajribalar bilan o'troqlashish may-doniga aylandi, — deydi "Farg'ona" teleka-nali bosh rejissyori Kamoldin Turdaliyev.

Ijodkorlarning yoshi va qarashlari turlicha bo'lsa-da, maqsad bir — axborot may-doniga tezkor, xolis va to'g'ri ma'lumot yetkazib berish. Amaliy jarayonlarda bu boradagi bilim va ko'nikmalarimizni oshi-rish, xususan, faoliyatda asosan nimalarga e'tibor qaratilish lozimligi haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Muloqot davomida ma'lumotning haqqo-nyiligi, xolisligi va shaffofligini ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qarattildi. Ayni jarayonda inson qadr-qimmatida hamda shaxsiy hayoti daxlsizligini hurmat qilish kabi masalalardagi o'ziga xos yonda-shuvlar bo'yicha atroficha fikr almashildi.

Jurnalist har qanday axborotni, birinchi navbatda, iste'molchi sifatida qabul qilishi va uni tekshirib ko'rishi zarur, — deydi jurnalist Alisher Shokirov. — Ayrim hollarda rost axborotlarga nisbatan yolg'on xabarlar tezroq va kengroq tarqalayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Bu esa ommani, tinglovchini chalg'itadi. Ushbu jarayon jurnalistlardan alohida mahorat talab qilib, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashni puxta egallashni taqozo etadi, albatta. Mashg'ulotlarda aynan shunday vaziyatlarda nimalarga e'tibor berish, axborotni qanday usulda tezkor va to'g'ri yetkazib berish borasida mahorat darslari o'tkazilgani ayni muddabo'ldi.

Amaliy mashg'ulotlarda rasmiy manbalarni aniqlash, milliy mediakontent tayyorlash va faktcheking tajribasini amaliyotda qo'llash yo'nalishlari qamrab olindi. Shu bilan birga, mobilografarlar, SMM mutaxassislari, vaynerlar, videomontajchilar va fotomuxbirlar ishtirokida ham maxsus nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi.

Barcha yo'nalishlardagi ish uslubiga tez moslashish, huquqiy va iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, qolaversa, kasb etikasi va odobiga alohida e'tibor qaratilish zarur, — deydi mediaekspert Ikrom Avvalboyev. — Bu jarayonda multimedia imkoniyatlaridan foydalanish, maqolaga sarlavha tanlash mahorati va qisqa soniyalarda o'quvchi yoki tomoshabin e'tiborini jalb qila olish ko'nikmasiga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy kontent yaratishda shunchaki shov-shuv ko'tarish emas, balki jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi va muammoga aniq yechim beruvchi mukammal ijodiy mahsulot yaratish asosiy maqsad bo'lishi lozim. Sababi, tezkor axborot maydonida xabarni to'g'ri va xolis yetkazish, har qanday yangilikni barcha tomonlar manfaatini ino-batga olgan holda tahlil qilish hamda uni au-ditoriyaga ta'sirchan usulda taqdim etish eng muhim vazifalardan biridir.

Mazkur loyiha farg'onalik media-ijodkorlar uchun o'zaro muloqot maydonida yangi imkoniyat eshiklari ochdi. Media haftalikda faol ishtirok etgan ijodkorlarga sertifikatlar topshirildi. Farg'onalik san'at ustalari ijrosidagi dilrabo kuy-qo'shiqlar esa tadbirga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri (Sherzod Qoraboyev olgan suratlar).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. NASHR INDEKSI — 236. Buyurtma G-546. 30761 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.